

O'QUV-USLUBIY MAJMUA



# ASTRONOMIYA VA ASTROFIZIKANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YUTUQLARI

# 2025

FIZIKA VA  
ASTRANO MIYA



**MALAKA OSHIRISH MARKAZI:**

SamDu Huzuridagi  
PKQTVUMOMM

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH  
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Mintaqaviy markaz direktori

\_\_\_\_\_ A. I. Babayarov

“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025-yil

**“Astronomiya va astrofizikaning zamonaviy  
muammolari va yutuqlari”  
moduli bo'yicha**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**SAMARQAND 2025**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchilar:**

**SamDU “Yadro fizikasi va astronomiya” kafedrasi Ph.D. assistentlari  
Z.D. Mirtoshev, U.U. Tuxtayev**

**Taqrizchi:**

**SamDU “Yadro fizikasi va astronomiya”  
kafedrasi professori R.Eshbo’riyev  
fizika-matematika bo‘yicha Ph.D., dotsent  
Z.D. Mirtoshev**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi 7-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

## **MUNDARIJA**

|  |            |
|--|------------|
| <b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>                    | <b>4</b>   |
| <b>II. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b> | <b>17</b>  |
| <b>III. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>  | <b>65</b>  |
| <b>IV. GLOSSARIY .....</b>                       | <b>100</b> |
| <b>V. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>             | <b>113</b> |
| <b>NAZORAT SAVOLLARI.....</b>                    | <b>117</b> |

## Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga moljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalami o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlami qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ulaming tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni “Astronomiya va astrofizikaning zamonaviy muammolari va yutuqlari” bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

### I. Modulning maqsadi va vazifalari

“Astronomiya va astrofizikaning zamonaviy muammolari va yutuqlari” modulining **maqsadi** pedagog kadrlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta’minalashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta’minalashdan iborat.

#### Modulning vazifalari:

- “Fizika va astronomiya” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minalash;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minalash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;
- “Fizika va astronomiya” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka

oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi **bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:**

**Tinglovchi:**

- hozirgi zamon astrofizikasining nazariy masalalari, astronomiya fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni, fizikaviy bilimlar tizimida astrofizik masalalar va uning zamonaviy konsepsiyalari, sistema, element, struktura va funksiya tushunchalarini, mazmuni, koinot to‘g‘risidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini; yulduzlarning paydo bo‘lish jarayonini; kompakt gravitatsion obyektlarni; qora o‘ralar va ularning tiplarini; neytron yulduz va oq mittilarni; James Webb va Hubble kosmik teleskoplarning zamonaviy kuzatuvlari va kashfiyotlarini ***bilishi kerak;***

- grafiklar chizish usullari: matplotlib, pyplot bibliotekasi parametrlari, ular yordamida turli shakildagi grafik va histogrammalarni chizish; koinotning yirik mashtabdagi strukturasidan foydalanish; ekzoplanetalar va zamonaviy kuzatuvlarni amalga oshirish ***ko‘nikmalariga ega bolishi lozim;***

- Chandrasekar va Opengeymer-Volkov chegaralaridan foydalana olish; chala tarmoqli va to‘liq tarmoqli algoritmlarni ahamiyatini ochib berish; James Webb va Hubble kosmik teleskoplarning zamonaviy kuzatuvlari va kashfiyotlarni kelib chiqishini tushuntirib berish; python tiliga kirish: proyektni saqlash va tayyorini davom ettirish, sintaksisining asosiy qoidalarini qo‘llash; yulduzlar evolyutsiyasini o‘rganish ***malakalariga ega bo‘lishi zarur;***

- mexanik harakatlarni modellashtirish va ularni visuallashtish usullaridan foydalanish; Gravastalar, Bozon yulduzlar, kvark yulduzlarni farqlash; ekzoplanetalar va zamonaviy kuzatuvlarni amalga oshirish; neytron yulduzlarning magnit maydonini o‘rganish; qorong‘i materiya va qorong‘i energiya mohiyatini ochib berish; yulduzlarning paydo bo‘lish jarayonini tahlil etish ***kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.***

**Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Astronomiya va astrofizikaning zamonaviy muammolari va yutuqlari” moduli ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis- so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asoslari” moduli bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### ***Modulning olyi ta’limdagi o‘rni***

Ushbu fan talim yo’nalishining umumkasbiy fanlar turkumiga tegishli bo’lib, astronomiya va astrofizikaning turli yo’nalishlari orasidagi bog‘liqlarini ochib berishda yordam beradi. Kuzatuv astronomiya va astrofizika, yulduzlar va boshqa astronomik ob’ektlari bilan bog‘liq bo’lgan muammolar bilan tanishtiradi va O’zR Fanlar Akademiyasining turli institutlarida ishlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlashda qo’l keladi.

### **MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI**

**(ja’mi 18 soat: 8 soat nazariy, 10 soat amaliy)**

| №  | Modul mavzulari   | JAMI | Tinglovchilaning o‘quv yuklamasi, soat |                    |          |
|----|---|------|--|--------------------|----------|
|    |   |      | Auditoriya o‘quv yuklamasi             |                    |          |
|    |   |      | Nazariy                                | Amaliy mashg‘ ulot | jumladan |
| 1. | Koinot to‘g‘risidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Qorong‘i materiya va qorong‘i energiya.  | 2    | 2                                      |                    |          |
| 2. | Yulduzlarning tarkibi. Yulduzlarda metallarning o‘rni. Gershpprung-Rassel diagrammasi. O‘ta massiv qora o‘ralar.  | 2    | 2                                      |                    |          |
| 3. | Kompakt gravitatsion obyektlar. Qora o‘ralar, neytron yulduzlar. Qora o‘ralar va ularning tiplari. Chandrasekar va Opengeymer-Volkov chegaralari.             | 2    | 2                                      |                    |          |
| 4. | Neytron yulduz va oq mittilar. Neytron yulduzlarning magnit maydoni. Akkretsion disk. Qora o‘raning nurlanishi. Qora o‘ra termodinamikasi. Qora o‘ra tasviri. | 2    | 2                                      |                    |          |
| 5. | Gravitatsion to‘lqinlar. Ko‘p kanalli astronomiya. O‘ta massiv qora o‘ralar.  | 2    |  | 2                  |          |
| 6. | James Webb va Hubble kosmik teleskoplarning zamonaviy kuzatuvlari va  | 2    |  | 2                  |          |

|              |   |           |          |           |  |
|--------------|---|-----------|----------|-----------|--|
| <b>7.</b>    | Ekzoplanetalar va zamonaviy kuzatuvlar. Galaktikalar va ularning turlari.                         | <b>2</b>  |          | <b>2</b>  |  |
| <b>8.</b>    | Ekzotik yulduzlar: gravostarlar, bozon yulduzlar, kvark yulduzlar. Galaktikalarning shakllanishi. | <b>2</b>  |          | <b>2</b>  |  |
| <b>9.</b>    | Galaktikalarning turlari. Gravastarlar, Bozon yulduzlar, kvark yulduzlar.                         | <b>2</b>  |          | <b>2</b>  |  |
| <b>Jami:</b> |   | <b>18</b> | <b>8</b> | <b>10</b> |  |

### **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI (8 soat)**

#### **1- MAVZU: KOINOT TO'G'RISIDAGI TASAVVURLARNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI (2 soat)**

Qorong'i materiya va qorong'i energiya. Nukleosintez va elementlarning tarqalishi. Yulduzlarning paydo bo'lish jarayoni. Koinotning yirik masshtabdagi strukturasi. Katta portlash va inflyatsiya. Yulduzlar evolyutsiyasi.

#### **2- MAVZU: YULDUZLARNING TARKIBI. (2 soat)**

Yulduzlarda metallarning o'rni. Gershpprung-Rassel diagrammasi. O'ta massiv qora o'ralar.

#### **3- MAVZU: KOMPAKT GRAVITATSION OBYEKTILAR. (2 soat)**

Qora o'ralar, neytron yulduzlar. Qora o'ralar va ularning tiplari.

Chandrasekar va Opengeymer-Volkov chegaralari.

#### **4- MAVZU: NEYTRON YULDUZ VA OQ MITTILAR. (2 soat)**

Neytron yulduzlarning magnit maydoni. Akkretsiyon disk. Qora o'raning nurlanishi. Qora o'ra termodinamikasi. Qora o'ra tasviri.

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI (8 soat)**

#### **1- AMALIY MASHG'ULOT: GRAVITATSION TO'LQINLAR. (2 soat)**

Ko'p kanalli astronomiya. O'ta massiv qora o'ralar.

#### **2- AMALIY MASHG'ULOT: JAMES WEBB VA HUBBLE KOSMIK TELESKOPLARI. (2 soat)**

James Webb va Hubble kosmik teleskoplarning zamonaviy kuzatuvlari va kashfiyotlari.

#### **3- AMALIY MASHG'ULOT: EKZOPLANETALAR VA ZAMONAVIY KUZATUVLAR (2 soat)**

Ekzoplanetalar va zamonaviy kuzatuvlar. Galaktikalar va ularning turlari.

#### **4- AMALIY MASHG'ULOT: EKZOTIK YULDUZLAR: GRAVOSTARLAR, BOZON YULDUZLAR. (2 soat)**

Ekzotik yulduzlar: gravostarlar, bozon yulduzlar, kvark yulduzlar. Galaktikalarning shakllanishi.

## **5- AMALIY MASHG‘ULOT: GALAKTIKALARING TURLARI. (2 soat)**

Galaktikalarning turlari. Gravastarlar, Bozon yulduzlar, kvark yulduzlar.

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari asosan interaktiv ta’lim prinsiplari asosida quyidagi o‘qitish shakllarida tashkil etiladi.

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (egallangan bilimlar asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (o‘zaro tajriba almashish orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish).

## NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

**1-MAVZU: Koinot to‘g‘risidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Qorong‘i materiya va qorong‘i energiya.**

### REJA:

- 1. Koinot to‘g‘risidagi ilk tasavvurlarning paydo bo‘lishi.**
- 2. Koinot rivojlanishining bosqichlari**
- 3. Qorong‘i materiya**
- 4. Qorong‘i energiya**


Galaktikalar Koinotning «g`ishtlari» hisoblanadi, shu sababli ularning qanday yuzaga kelgani va rivojlanish bosqichlari masalasi astrofizikaning hozirgi kundagi dolzarb muammolaridan biridir. Galaktikalarning vujudga kelish nazariyasida ikkita bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan stsenariyalar mavjud: 1) Koinot evolyutsiyasining boshlang`ich bosqichida avval galaktikalar protoo`tato`drali shakllangan va ular asta-sekin yuzaga kelgan gravitatsion beqarorlik natijasida bosqichma-bosqich bo`laklarga (fragmentatsiyalarga) bo`linib borib, protogalaktikalar yuzaga kelgan va ulardan oqibat natijada galaktikalar vujudga kelgan; 2) Koinotda avval yulduzlar sharsimon to`dalarining protobulutlari paydo bo`lgan va ular asta-sekin birlashib protogalaktikalarni, ular zaminida esa galaktikalar yuzaga kelgan.

Uzoq yillar davomida, aniqrog`i 80-yillarga qadar elliptik galaktikalar asosan asta siqilayotgan protogalaktikaning o`z o`qi atrofida aylanish tezligi oshib borishi tufayli vujudga kelgan deb tushunilgan. Xususan, Gott-III elektron hisoblash mashinasida qator sonli tajribalar o`tkazilinib, yuqoridaq siqilish jarayoni natijasida elliptik galaktikalar vujudga kelishi mumkinligini nazariy tasdiqlangan. Bu usul bilan u E1 - E5 elliptik galaktikalarning vujudga kelishini ko`rsatib bergen. Biroq 80 - yillariga kelib elliptik galaktikalarning o`z o`qlari atrofida aylanish qiymatlari kuzatuvlarga ko`ra xaddan tashqari kichik ekanı aniqlandi. Bu qiymatlар nazariyadagi natijalardan ancha uzoq ekanı ma'lum bo`lib chikdi. Keyinchalik kuzatuvchi-astrofiziklar elliptik galaktikalarning yanada murakkab modellarini tuzish maksadida ularning aylanish chizig`i, zichlik va ravshanlik taksimotlari kabi funktsiyalarni kuzatuvlardan topa boshlab, modellashtirish muammolarini ancha chuqur hal qilishdi.

Bu davrda parallel ravishda qator nazariy ishlar ham bajarildi. Xususan, D.Linden-Bell elliptik galaktikalarning regulyar yorqinligini ular evolyutsiyasining boshlang`ich davridagi nostatsionar va o`ta aktiv kollektiv relaksatsiya jarayoni bilan tushuntirib berdi.

Galaktikamizda yulduzlararo muhit va yulduzlar moddasining umumiyligi mikdorilari nisbati vaqt o`tishi bilan o`zgarib turadi, chunki yulduzlararo diffuz muhitda yulduzlar paydo bo`ladi va ular o`zlarining evolyutsiyalari oxirida oq karliklar hamda neytron yulduzlarga aylanishlari natijasida ma'lum bir qismlarini yana yulduzlararo muhitga chiqazib yuboradilar. Shu yo`sinda Galaktikamizdagи yulduzlararo muhit miqdori vaqt o`tishi bilan kamayib borishi kerak. Xuddi shunday hol boshqa galaktikalarda ham kuzatiladi. Yulduzlar qarida modda qayta ishlanishi natijasida Galaktikamiz geliy va og`ir elementlar bilan boyib borgan, buning

oqibatida uning kimyoviy tarkibi vaqt o`tishi bilan o`zgarib boradi. Galaktika asosan vodorod gazidan iborat bulutdan yuzaga kelgan deb taxmin qilinadi. Hattoki, bu bulutda vodorodan tashqari boshqa element bo`lmagan deb ham fikr yuritiladi. Shunday qilib, geliy va og`ir elementlar yulduzlar markazidagi termoyadro reaktsiyasi natijasida yuzaga keladi. Og`ir elementlar yuzaga kelishi uchlangan geliy reaktsiyasida boshlanadi:



Keyinchalik  $\text{C}^{12}$  proton, neytron va  $\alpha$ -zarrachalari bilan birlashishi natijasida yanada murakkab yadrolar yuzaga kela boshlagan. Biroq bunday uzluksiz ortib borish nazariyasi orqali uran va toriy kabi juda og`ir yadrolarning vujudga kelishini tushuntirish mumkin emas. Bunda keyingi nuklonni egallashga ulgurishdan ko`ra tezroq parchalanuvchi radioaktiv izotoplarning beqarorlik bosqichida bo`lishligini e'tiborga olmaslik mumkin emas. Shu sababli, Mendeleev jadvalining oxirida joylashgan og`ir elementlar o`ta yangi yulduzlarning chaqnashi vaqtida yuzaga kela boshlaydi deb taxmin qilinadi. Bunday o`ta yangi yulduzlar chaqnashlari ularning tez siqilishi natijasida ro`y beradi. Bunda temperatura benixoya oshib ketadi, siqilayotgan atmosferada termoyadro reaktsiyasi zanjiri vujudga kelib, uning oqibatida kuchli neytron oqimi hosil bo`ladi. Neytron oqimining intensivligi shu qadar kuchli bo`lishi mumkinki, bunda oraliq beqaror yadrolar bo`linishga ulgura olmay, yangi neytronlarni o`zlariga olib barqaror bo`lib qoladilar.

Galaktika sferik tashkil etuvchi qismidagiga nisbatan tekislik tashkil etuvchisidagi yulduzlar og`ir elementlarga boy bo`ladi, chunki sferik tashkil etuvchi qismidagi yulduzlar Galaktika evolyutsiyasining boshlang`ich bosqichida, ya`ni yulduzlararo gaz hali og`ir elementlarga kambag`al vaktida shakllanadilar. Bu vaktda yulduzlararo gaz asosan sferik bulut ko`rinishida bo`lgan va markaziga qarab kontsentratsiya oshib borgan. Bunda sferik tashkil etuvchi qismda vujudga kelgan yulduzlar ham shunday taqsimotni saqlab qolgan.

Yulduzlararo gaz bulutlarining to`qnashishi natijasida ularning tezliklari astasekin kamayib borgan, kinetik energiya issiklik energiyasiga aylangan hamda gaz bulutining umumiy shakli va o`lchamlari vaqt o`tishi bilan o`zgarib borgan. Hisoblashlar ko`rsatadiki, tez aylanuvchi bunday bulut bizning Galaktikada kuzatiladigan yassi disk shaklini olishi kerak. Shu sababli, nisbatan kechroq yuzaga kelgan yulduzlar tekislik tashkil etuvchi qismni hosil qilgan. Bu vaktga kelib, yulduzlararo gaz tekislik shaklidagi disk ko`rinishini olgan va u yulduzlar qa'rida qayta ishlanishdan o`tgani natijasida nisbatan og`ir elementlarni o`zida mujassamlagan. Shu sababli tekislik tashkil etuvchi qismidagi yulduzlar ham og`ir elementlarga boy bo`lgan. Ko`pincha tekislik tashkil etuvchi qismidagi yulduzlar ikkinchi avlod, sferik tashkil etuvchi qismdagilar esa birinchi avlod yulduzlar deb ataladi va bu bilan tekisliklik tashkil etuvchidagilar boshlang`ich yulduzlar qa'rida bo`lib chiqqan moddadan yuzaga kelgan degan fikrga ishora qilinadi.

Boshqa spiral galaktikalarda ham rivojlanish etapi xuddi shunday ro`y bergan deyish mumkin. Yulduzlararo gaz mujassamlashgan spiral tarmoqlar shakli galaktika umumiy magnit maydon kuch chiziqlari yo`nalishidan aniklanadi. Yulduzlararo gaz “yopishgan” magnit maydon eguluvchanligi gaz diskining

yupqalanishini chegaralaydi. Agar yulduzlararo gazga faqat og`irlik kuchi ta'sir etganda edi, uning sikilishi cheksiz davom etgan bo`lardi. Bunda katta zichlik hisobiga yulduzlararo gaz tez yulduzlarda yig`ilib qolmagan bo`lar edi. Yulduzlarning vujudga kelish tezligi yulduzlararo gaz zichligi kvadratiga taxminan proportsional bo`ladi.

Agar galaktika sekin aylansa, u holda yulduzlararo gaz og`irlik kuchi ta'sirida markazga yig`iladi. Aftidan, bunday galaktikalarda magnit maydoni tez aylanuvchi galaktikalardagiga nisbatan kuchsiz bo`lib, yulduzlararo gazning siqilishiga kam qarshilik ko`rsatadi. Markaziy oblastlardagi katta zichlik tufayli yulduzlararo gaz yulduzlarga aylanib sarflanib ketadi. Natijada sekin aylanuvchi galaktikalar taxminan markazga tomon yulduzlar zichligi tez o`sib boruvchi sfera ko`rinishini olishlari kerak. Bizga ma'lumki, xuddi shunday xususiyatga elliptik galaktikalar ega. Ularning spiral galaktikalardan farqi ham aylanish tezliklari kichiklidadir. Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo`ladiki, nima uchun elliptik galaktikalarda yulduzlararo gaz va yulduzlarning boshlang`ich sinflariga xos yulduzlar kam.

Shunday qilib, galaktikalarining vujudga kelishi taxminan sferik shakldagi gaz buluti bosqichidan boshlanadi. Bu bulut vodorod gazidan iborat bo`lib, u birjinsli bo`limgan. Gazning alohida bo`laklari harakatlanib, bir-birlari bilan to`qnashishlari natijasida kinetik energiyalarini yo`qotganlar va oqibatda bulutda siqilish jarayoniga olib kelgan. Agar bu bulutning aylanish tezligi katta bo`lsa spiral galaktika, aylanish tezligi kichik bo`lsa undan elliptik galaktika vujudga kelgan.

### **Kosmologik prinsip va Koinot modellari**

Kosmologiya uchun Koinotning etarlicha katta fazo xajmidagi modda o`rtacha zichligining bir xil bo`lishi xaqidagi g`oya ancha qo`l keladi. Moddaning o`rtacha zichligini bir xil deb hisoblash mumkin bo`lgan soha o`lchamlari Metagalaktikan dan ancha kichik, lekin bu o`lcham yulduzlar, galaktikalar va ularning to`dalari mavjudligi bilan bog`liq maxalliy (lokal) nojinslilik o`lchamlariga nisbatan ancha katta.

Koinotda modda taqsimotini o`rtacha baholash uchun berilgan ko`rinma yulduz kattaligigacha kattalikka ega bo`lgan galaktikalarining sonini hisoblash orqali amalga oshirsa bo`ladi. Kuzatuvlarga asosan xira galaktikalar uchun munosabat 4 qiymatiga yaqin, undan tashqari, har xil yo`nalishda bu qiymatdan og`ish tasodify xarakterga ega. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, o`rta hisobda hamma yo`nalishlar bo`yicha galaktikalar bir tekis taqsimlangan.

Kosmologiya nuqtai nazaridan, juda katta masshtablarda modda o`rtacha zichligining bir xilligi Koinotning bir jinslilik va izotroplilik xususiyalaridan kelib chiqadi. Koinotdagi materiya xususiyatlari fazoning hamma erida bir xil bo`lsa u bir jinsli, agar bu xususiyatlar barcha yo`nalishda bir xil bo`lsa izotrop bo`ladi. Boshqacha qilib aytganda, fazoning barcha nuqtalari va yo`nalishlari bir xil axamiyatga ega. Izotroplik xususiyatining mavjudligini kuzatuvda ham tasdiqlash mumkin, qaysiki hamma yo`nalishda galaktikalarining uzoqlashish qonuni bir xil.

Lekin aytish kerakki, yuqoridagi bu xususiyatlar ma'lum bir masshtabdandan amalga oshadi, aniqrog`i bu o`lcham bizning davrimizga kelib 50-100 Mpk ga

erishdi. Koinotning bir jinsliliqi va izotropliliqi haqidagi fikr ko`pincha kosmologik printsip deb ataladi.

Oldingi kosmologik tasavvurlar bir jinslilik bilan bir qatorda bizning olamimizning o`zgarmas yoki statistik ekanligi printsipidan keltirib chiqazilgan. Bu xususiyatlarni cheksiz Evklid fazosiga ilk bor tadbiq qilinishi fotometrik va gravitatsion paradokslarga olib kelgan.

Fotometrik paradoksni birinchi bo`lib Shveytsariyalik olim J.Shezo 1744 yili, keyinchalik 1826 yili esa Germaniyalik G.Olberslar yoritib berishgan. Unga asosan, agar cheksiz fazo yulduzlar bilan bir tekis egallangan bo`lsa, u holda ixtiyoriy ko`rish nuri yo`nalishi ertami, kechmi qandaydir yulduz bilan kesishadi. Ob'ektning kuzatilayotgan ravshanligi ungacha bo`lgan masofaga bog`liq bo`lmaganligi uchun butun osmon xuddi quyosh diskini kabi bir tekis nur sochadi. Yulduzlararo nuring yutilishi bu paradoksni yo`qqa chiqaza olmaydi, chunki yutilgan nur ertami, kechmi fazoga qayta nurlanadi. Uzoqlashayotgan ob'ektda qizilga siljish xodisasi kuzatilishi tufayli uning yorug`lik energiyasining kamayishini hisobga olsak, fotometrik paradoks xodisasi ro`y bermaydi. Bundan tashqari, kuzatish mumkin bo`lgan fazo hajmi Koinotdagi ko`rish gorizonti bilan chegaralangan va bu xajm chekli bo`ladi. Ko`rish gorizonti ostida shunday sferani ko`z oldimizga keltiramizki, undagi har bir nuqta kuzatuvchidan ma'lum masofada bo`lib, bu masofani nur kengayuvchi Koinotning yuzaga kelish vaqt davomida bosib o`tgan.

Gravitatsion paradoks Germaniyalik olim X.Zeeliger tomonidan 1895 y. bayon etilgan. Uning ta'rifiga ko`ra, modda bir tekis taqsimlangan cheksiz Koinotda Nyuton qonunidan foydalanib berilgan nuqtaga ta'sir qilayotgan gravitatsion kuchni bir qiymatli hisoblab bo`lmaydi. Ya'ni masalan, agar bu kuchni shu nuqtadagi massaga ta'sir etuvchi kuchlarning yig`indisi ko`rinishida aniqlasak, qaysiki bu kuchlarni shu nuqta markazli kontsentrik qatlamlar hosil qilayotgan bo`lsa, unda natijaviy kuch nulga teng. Agar hisoblashni markazi bu nuqtadan r masofada bo`lgan kontsentrik qatlamlar uchun olib borilsa, unda natijaviy kuch r radiusli shar sirtida joylashgan nuqtani tortayotgan kuchga teng bo`ladi.

Gravitatsion paradoksning yuzaga kelishiga sabab, Evklid fazosida bir onda tarqaluvchi tortishish kuchi haqidagi Nyutonning tortishish nazariyasini cheksiz Koinotga qo`llab bo`lmaslidadir. Shuning uchun, kosmologiyada Metagalaktikaning katta masshtablari o`rganilayotganda Eynshteyn tomonidan 1916 yili asoslari ishlab chiqilgan nisbiylik umumiyligi nazariyalaridan (NUN) foydalanish kerak.

Mexanika qonunlari NUN da ancha umumiyligi ko`rinishda ifodalanadi, Nyuton qonunlari esa kuchsiz gravitatsion maydon chegaraviy holida ulardan hosil qilinadi. Gravitatsion paradoks NUN da bo`lmaydi. Bu nazariyaning yuzaga kelishi kosmologiyani zamonaviy rivojlanish bosqichiga ko`tardi. Asosiy kosmologik tenglamalar Eynshteynning o`zi tomonidan keltirib chiqazilib, ular statistik Koinot xususiy holi uchun echilgan. Keyinchalik 1922 yili Rossiyalik buyuk matematik Fridman tomonidan nisbatan umumiyligi holda ham echimlar topilgan. Lekin keyinchalik ma'lum bo`ldiki, Nyuton tenglamalari asosida ham qator muhim kosmologik natijalar olish mumkin ekan. Bu imkoniyat katta uslubiy axamiyatga

ega, chunki zamonaviy kosmologiya natijalarini to`liq tushunish uchun kerak bo`ladigan NUN matematik apparatiga erushgunimizga qadar yuqoridagi imkoniyat orqali biz murakkab kosmologik muammolarga yaqinlashamiz mumkin.

Modellashtirish tabiatning murakkab ob'ektlarini tadqiq etishda muhim usul hisoblanadi. Umuman olganda biz yuqoridagi boblarda bunday usuldan bir necha bor foydalandik, bunda biz real ob'ektni soddalashtirilgan matematik sxema bilan almashtirdik. Bu sxemada ba'zi elementlar ilgaridan (kuzatuvdan) ma'lum deb, qolganlari nazariy fizika va matematika usullarini qo`llash yordamida topiladi. Bu ishda eng muhim natijalovchi bosqich sifatida nazariy topilgan model xususiyatlarini biz foydalangan nazariyada qilingan chegaralanishlar va taxminlarni hisobga olgan holda real ob'ektga o`tkazish hisoblanadi.

Biz bir jinsli izotrop Koinot modelini qaraymiz, bunda Nyuton qonunlari yordamida jismarning o`zaro ta'siri kuchlari ifodalanib, bu kuchlar boshqa hech qanday kuchlar bilan to`liq muvozanatda bo`la olmaydi va modda harakatining xarakterini aniqlashda muhim hisoblanadi.

Binobarin Nyuton qonunlarini faqat chekli massalarga qo`llash mumkinligi avvaldan ma'lum, shu sababli bizning model juda katta, lekin Koinotning chekli massali chekli qismiga tegishlidir. Ma'lumki, bunday massa bo`laklari orasidagi o`zaro tortishish kuchi mavjudligi tufayli siqilishi, yoki u shunday kinetik energiya zapasiga egaki, natijada kengayishi kerak. Bu kengayish esa bo`laklar orasidagi tortishish kuchi tufayli vaqt o`tishi bilan tormozlanadi.

Ko`rsatish mumkinki, bir jinsli izotrop Koinotda Xabbl qonuni o`rinli. Aniqlashtirish uchun kengayuvchi Koinot modelini qaraymiz. Fazoda boshlang`ich vaqt bir - biridan r masofada bo`lgan ixtiyoriy ikkita A va B nuqtalar  $V = \Delta r / \Delta t$  tezlik bilan o`zaro uzoqlashayotgan bo`lsin. AB masofani  $r$  - birlik intervallarga bo`lamiz. Bu intervallardan har biri  $\Delta t$  vaqt davomida bir jinslilik xususiyatiga ko`ra bir hil  $\Delta r / r$  qiymatiga oshadi. Shuning uchun birlik intervalning oshish tezligi  $\frac{1}{r} \left( \frac{\Delta r}{\Delta t} \right)$  qiymatni tashkil etadi. Bu qiymat fazoning hamma erda va hamma yo`nalishida bir xil bo`lganligidan va faqat vaqtga bog`liqligidan uni  $H^{(t)}$  deb belgilaymiz. Bundan Xabbl qonunini hosil qilamiz:

$$V = \frac{\Delta r}{\Delta t} = r \left( \frac{1}{r} \cdot \frac{\Delta r}{\Delta t} \right) = rH \quad , \quad (1)$$

bu erda  $H$  - shu kundagi  $H(t)$  ning qiymati. Agar  $H=0$  bo`lsa, kengayish bo`lmaydi (statistik model). Lekin ma'lumki, bu xolat beqarordir, ya'ni modda massasi boshqa kuchlar bo`limganda o`zining xususiy tortishish maydonida kinetik va potentsial energiyalar nisbatining qiymatiga bog`liq holda kengayishi yoki siqilishi kerak.

Endi esa markazi fazoning berilgan nuqtasida bo`lgan ixtiyoriy  $r$  - radiusli sferani qaraymiz. Fazoning bir jinslilik va izotroplik xususiyatiga ko`ra, bu sferaning hamma nuqtalari markazdan bir xil tezlik bilan uzoqlashadi va uning radiusi vakt o`tishi bilan qandaydir vaqtga bog`liq bo`lgan funksiyaga proportsional holda kattalashib boradi, ya'ni

$$r(t) = rR(t). \quad (2)$$

$R(t)$  funktsiyaga masshtab faktori deyiladi va u koinotning kengayishini xarakterlaydi.

$r$  - radiusli sfera ichidagi massa hamma erda bir xil qiymatga ega bo`lgan zichlik orqali quyidagiga teng:

$$m = \frac{4}{3} \pi c r^3 \quad (3)$$

Qaralayotgan soha chegarasida joylashgan birlik massa ega bo`lgan kinetik energiyaga  $V^2/2$  ga va potentsial energiya  $-\frac{Gm}{r}$  ga teng. Energiyaning saqlanish qonuniga ko`ra ularning yig`indisi o`zgarmasdir:

$$\frac{1}{2} V^2 + \left( -G \frac{m}{r} \right) = E \quad (4)$$

Agar to`liq energiya nuldan kata bo`lsa ( $E>0$ ), u holda kengayish tezligi  $r$  ning biror qiymatida nul qiymatigacha kamaymaydi. O`zgarmas qiymatli sekinlashish bilan kengayish protsessii cheksiz davom etadi.  $R(t)$  masshtab faktori esa hamma vaqt o`sib boradi. Aksincha,  $E<0$  holida vaqt o`tishi bilan kengayish tezligi nul qiymatigacha kamayib borib, kengayish protsessi siqilishga o`tadi.  $V=0$  bo`lganda masshtab faktori eng kata qiymatga erishadi va shundan keyin u kamayuvchi funktsiya bo`lib qoladi. Bu chegaraviy hollar orasida shunday muhim oraliq holat mavjudki, bunda  $E=0$  bo`lib, kengayish chegaralmagan davom etib, uning tezligi nul qiymatiga intiladi. (4) formuladan ko`rinib turibdiki, bu holda kengayish tezligi parabolik tezlikka mos keladi:

$$V_n = \sqrt{2mG/r} \quad (5)$$

Bu formuladagi tezlik o`rniga Xabbl qonunidagi ifodasini va massa o`rniga (3) formulani qo`ysak, quyidagi zichlikka ega bo`lamiz:

$$\rho_0 = \frac{3H^2}{8\pi g} \quad (6)$$

Ko`rinib turibdiki, bu zichlik  $r$  radiusga bog`liq emas. Demak aytish mumkinki, hosil qilingan natija ixtiyoriy katta masshtablar uchun ham o`rinli.  $E=0$  holida, ya`ni to`liq energiyaning nulinchi qiymatiga mos keluvchi zichlikka kritik zichlik deb olamiz, chunki bu kritik qiymatdan katta va kichik holiga to`g`ri keluvchi Koinotning o`rtacha zichligida yuqorida qaralgan berk va chegaralanmagan kengayuvchi Koinot namoyon bo`ladi.

Agar  $H=75$  km/(s·Mpk) deb olsak, Koinotning hozirgi vaqtdagi zichligi uchun kritik qiymat taxminan  $10^{-29} g / sm^3$  ni tashkil etadi. Metagalaktikadagi ma'lum bo`lgan hamma massalarni hisobga olgan holda topilgan zichlik  $10^{-30} g / sm^3$  qiymatiga teng bo`lib, u kritik qiymatdan kichik. Lekin bu quyi chegara, chunki galaktikalararo muhit hali uncha aniq emas. Agar bu muhit massasi nisbatan katta bo`lsa, unda ma'lum vaqtdan boshlab Koinotning kengayish protsessi siqilish bilan almashinishi mumkin.

Koinotdagi moddaning o`rtacha zichligini aniqlashda nuldan farqli massaga ega bo`luvchi tinchlikdagi neytrinoni ham hisobga olish kerak bo`ladi. 1980 yillarda olib borilgan eksperimentlarning natijasiga ko`ra tinchlikdagi neytrino massasi  $10^{-32} g$  ekanligi taxmin qilinadi, bu esa elektron massasidan 20 000 marta kichikligini ko`rsatadi, lekin bu qiymatni yanada aniqlashtirish kerak. Koinotda juda ko`p miqdorda neytrino bo`lishi kerak, asosan reliktik, ya`ni uning kengayishining boshlang`ich bosqichidan qolgan. Nazariy hisob-kitoblarga ko`ra bitta protonga o`rta hisobda taxminan milliard neytrino to`g`ri keladi. Shuning uchun agar yuqoridagi baholash to`g`ri bo`lsa, u holda neytrino umumiy massasi oddiy modda massasidan 30 marta katta chiqadi. Shunday qilib, aynan neytrino bizning fazomizning fizik xususiyatlarini aniqlashi haqiqatdan xoli emas.

Endi Xabbl doimiysining fizik ma'nosini qaraymiz. U chastota o`lchamiga ega bo`lib, unga teskari bo`lgan kattalik vaqt o`lchamida va qiymati yilga  $t = 4 \cdot 10^{17} c = 13 \cdot 10^9$  teng (agar  $H=75 \text{ km/(s}\cdot\text{Mpk)}$  deb olsak). Kengayish tezligi ilgari o`zgarmagan deb faraz qilinsa, bu vaqt Metagalaktikaning kengayishi natijasida hozirgi holatiga erishishi uchun ketgan davrdir. Kuzatuvlar xatoligi chegarasida bu vaqt oralig`i ko`pgina galaktikalar yoshiga va Galaktikamizdagi qari yulduzlarning ular spektri va tarkibini o`rganish asosida topilgan yoshlariga mos keladi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, ko`pgina galaktikalar Koinot kengayishining juda boshlang`ich bosqichida paydo bo`lgan va bu birinchi milliard yilda bo`lib, bu vaqtda moddaning o`rtacha zichligi hozirgidan ancha katta bo`lgan.

Shunday qilib, klassik fizika doirasida biz Koinotning qator muhim xossalari aniqlashga erishdik: nostatsionarlik, kengayish va siqilishning mumkin bo`lgan holati, kritik zichlik qiymati, kengayish vaqt (Koinot «yoshi»). Koinotning aniq real xossalari, xususan, hozirda Koinotning kengayish xususiyati kuzatuvda tasdig`ini topishi kerak. Kelajakda qanday nostatsionarlik xususiyati namayon bo`ladi, bu bizga ma'lum emas. Keyinchalik kengayish siqilish jarayoni bilan almashishi mumkinligi haqiqatdan xoli emas. Avvalambor shuni aytish kerakki, oldin Koinotdagi modda ancha zich holatda bo`lgan deb aytish mumkin. Shu narsani alohida hisobga olishimiz kerakki, biz chiqazgan xulosalar klassik maxanikaga asoslangan, shuning uchun ular shunday o`lmamlarda o`rinliki, bunda kengayish tezligi yorug`lik tezligidan ancha kichikdir. Bunday chegaralarni qo`ymaslik uchun biz fizikaning yanada aniqroq qonunlaridan, avvalambor, NUN qonunlaridan foydalanishimiz kerak.

Agar kuzatuv ma'lumotlarini olsak undan galaktikalar to`dalari va o`ta to`dalari Metagalaktikada bir xil taqsimlangan va izotropdir. Metagalaktika bu xozirga kunda eng zamonaviy teleskoplar bilan kuzatish mumkin bo`lgan chegaradagi koinot tushuniladi. Hozirgi kunda koinotning 3 ta modeli mavjud:

- 1.Yopiq koinot modeli.
- 2.Ochiq koinot modeli.
- 3.Kengayuvchi koinot modeli.

Birinchi koinot modelini sovet matematigi Fridman A. bir jinsli va izotrop bo`lgan holda o`rgangan. U bir jinsli izotrop koinot nostatsionar bo`lishini va undan

galaktikalar tarqalishini ko`rsatgan. Bu modelga ko`ra ixtiyoriy 2 ta ob'ekt orasidagi masofa t vaqt momentida

$$r(t)=r_0 R(t)$$

bo`yicha o`zgaradi. Bu erda ro -boslang`ich vaqt momentidagi ob'ektlar orasidagi masofa.  $R(t)$ -masshtab faktorii deyiladi va u koinotning kengayishini xarakterlaydi. Xabll qonuniga ko`ra tezlikning o`zgarishi

$$v(t)=H(t)r(t)$$

qonuniyatga bo`ysunadi.

Bu holda koinotning o`rtacha zichligi quyidagi formula Bilan aniqlanadi va bu zichlik kritik zichlik deyiladi.

$$\rho = \frac{3H^2}{8\pi G}$$

Agar koinotdagি zichlik  $\rho$ , kritik zichlikdan kata bo`lsa, ya'ni  $\rho > \rho_{kr}$ , bu holda koinotning geometrik xususiyatlari sferik geometriya bilan aniqlanadi. Agar koinotning zichligi kritik zichlikka teng bo`lsa  $\rho = \rho_{kr}$  u holda koinotning kengayishi cheksiz davom etadi, agar kichkina bo`lsa  $\rho < \rho_{kr}$  bu koinotning ochiq modeli deb yuritiladi. Agar Xabll doimiysini  $H=50\text{km/sec}\cdot\text{mpg}$  deb olsak

$$\rho_{kr} = 5 \cdot 10^{-30} \text{ gr/sm}^3$$

kelib chiqadi. Metagalaktikadagi yulduzlar soni esa  $10^{11}$  ta. Agar Metagalaktika o`lchamini 600 MPs va undagi ob'ektlar massasini Galaktika massasiga teng deb olsak unda koinot zichligi

$$\rho_{koinot} = 5 \cdot 10^{-31} \text{ gr/sm}^3$$

kelib chiqadi.

Koinot zichligi Bilan kritik zichlikni taqqoslash bugungi kundagi koinot kengayayotgan koinot modeliga to`g`ri keladi.

$$\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}$$

Hozirgi kunda nur tezligidan kata tezlik yo`qdir. 220 Pk dan uyog`i kosmologik masofadir.

Koinotning kengayish hodisasi uning portlaganligi  $T=0$  sababli deb tushuniladi, chunki koinotdagи barcha Galaktikalar to`dalari bir-birlaridan uzlusiz ravishda uzoqlashib boryaptilar. Fridman echimi aynan kengayuvchi to`g`ri ekanligi Xabll tomonidan isbotlangan.

### Relyativistik astrofizika

Ma'lumki, nisbiylik nazariyasining natijalari katta massalar fazo va vaqt (zamon va makon) xossalari o`zgartiradi degan xulosaga olib keladi. Biz biladigan oddiy Evklid fazosidagi xossalari (masalan, uchburghak burchaklarining yig`indisi, parallel chiziqlar xossalari) katta massa yaqinida o`zgaradi, yoki boshqacha qilib aytganda, fazo egrilanadi.

Shunday qilib masalan, quyosh to`liq tutilishi vaqtida uning yaqinidagi yulduz vaziyatini kuzatish natijasida yulduzdan kelayotgan nur quyosh ta'sirida o`z yo`nalaishini taxminan ga o`zgartirishi ma'lum bo`lgan.

Hamma galaktikalar to`dalari massalarining hosil qilgan umumiylar gravitatsion ta'siri bir butun fazoning ma'lum bir egrilanishiga olib kelishi mumkin va bunda uning xossalariiga ta'sir ko`rsatishi aniq seziladi, binobarin, buning butun Koinot evolyutsiyasiga ham ta'siri bo`ladi. Umuman olganda, Koinotda massalar taqsimoti ixtiyoriy bo`lganda nisbiylik nazariyasi qonunlari asosida fazo va vaqt xossalarni aniqlash juda qiyin masala hisoblanadi.

Zamonaviy relyativistik kosmologiyani A.A.Fridman ishlardan boshlangan deb aytsa bo`ladi. qaysiki bu ishda bir jinsli izotrop Koinotda modda harakati hisoblanib, shu asosda modda tinch holatda bo`la olmasligi va Koinot nostatsionar holatda, ya'ni u yo kengayishda, yoki siqilish jarayonida bo`lishligi isbotlangan. Binobarin, bunda Koinotdagagi o`rtacha zichlik ham vaqt davomida o`zgarib boradi. Relyativistik kosmologiyada Koinotning nostatsionarlik xarakteri aynan yuqoridagi paragrafda biz qaragan «klassik» holdagidek (cheksiz kengayish va siqilish jarayoni bilan almashinuvchi kengayish) aniqlanadi. Relyativistik kosmologiyada topilgan zichlikning kritik qiymati yuqoridagi (6) ifoda bilan umuman olganda, mos tushadi.

Relyativistik nazariyaning negizini fazo egrilanishini aniqlash mumkinligi tashkil etadi. O`rtacha zichlik kritik qiymatga teng bo`lganda kengayish tezligi nulga cheksiz intiladi (sekinlashish), fazoning egrilanishi nulga teng va u Evklid geometriyasiga bo`ysunadi. Boshqa qolgan hollarda fazo geometriyasi Evklid geometriyasi bilan mos tushmaydi. Agar zichlik kritik qiymatdan kichik bo`lsa fazo egrilanishi manfiy, katta holida esa egrilanish musbat bo`ladi. Binobarin, birinchi holda Koinot har doim kengayishda bo`ladi, ikkinchi holda esa ma'lum davrga kelib kengayish jarayoni siqilish bilan almashanadi. Bu ikkinchi holida noevklid geometriyasiga ko`ra fazo chekli bo`lishi kerak, ya'ni u ixtiyoriy vaqt momentida chekli aniq hajmga, chekli massaga hamda galaktikalar to`dalarining chekli soniga ega bo`lishi kerak va h.k. Ammo, Koinot chegarasi albatta yo`q.

Bunday uch o`lchovli fazoning ikki o`lchovli modeli sifatida kengayayotgan sfera sirtini olish mumkin. Bunday modelda galaktikalar unda chizilgan yassi shakllar ko`rinishida ifodalanadi. Sfera sirtining cho`zilishi natijasida uning yuzasi va hamma shakllar orasidagi masofalar kattalashadi. Aslida umuman olganda bunday sfera cheksiz kattalashishi mumkin, uning sirti yuzasi har bir vaqt momentida chekli bo`ladi, shu bilan birga bu ikki o`lchovli fazoda (sirtda) chegara yo`q.

### **Koinot vujudga kelishi va evolyutsiya bosqichlari**

1965 yilda kosmologiya uchun juda muhim kashfiyat qilindi. Bu kashfiyat Koinotning izotropligi va bir jinsliliqi haqidagi taxminni tasdiqladi. Erning sun'iy yo`ldoshini kuzatish maqsadida radioasbobni sozlash vaqtida tasodifan kuchsiz fonli radionurlanish qabul qilingan va bu nurlanish hamma yo`nalishda bir xil intensivlikka ega bo`lgan. Zamonaviy kuzatuvlarga asosan protsentning bir qancha o`nlik ulushlari aniqligida bu nurlanish izotropdir (ya'ni uning temperaturasi yo`nalishga bog`liq emas). Bu nurlanish spektrida energiya taqsimoti bo`yicha issiqlik nurlanishi bo`lib, u taxminan 3K ga mos keladi. Bunday temperaturada nurlanish maksimumi spektrning taxminan 1 mm diapazoniga to`g`ri keladi. Hozirgi vaqtda Koinotda shu qadar yuqori izotrop darajasiga va Plank spektriga ega bo`lgan

hamda spektrning millimetr diapazonida nurlanuvchi ob'ektlar ma'lum emas. Shu asosda 3K temperaturali bu nurlanishni Koinotda modda zichligi juda katta bo`lgan va muhit o`ta xira vaqtda nurlangan hamda shu paytgacha saqlanib qolgan nurlanishga o`xshatilgan. Kengayish jarayonida vaqt o`tishi bilan modda sovigan va u ionlashgan holdan neytral fazasiga o`tib shaffof holga kelgan. Nurlanish esa moddadan «ajralganidan» so`ng qayta yutilmay shu vaqtgacha saqlanib qolgan.

Hisob-kitoblar shuni ko`rsatadi, moddaning shaffoflanish jarayoni boshlanganda Koinotdagi modda zichligi  $10^{-20} \text{ g / sm}^3$  (atomlarning o`rtacha kontsentratsiyasi  $10^4 \text{ sm}^{-3}$ ) bo`lgan, ya`ni hozirgisidan milliard marta katta bo`lgan. Madomiki, zichlik masofa kubiga teskari proportsional ekan, demak, Koinotning kengayishini agar xuddi hozirgidagidek desak, u holda muhit xira bo`lgan davrda Koinotdagi hamma masofalar taxminan 1000 marta kichik bo`lgan. Xuddi shuncha marta to`lqin uzunlik ham kichik bo`lgan. Shuning uchun hozir vaqtda 1 mm to`lqin uzunlikka ega bo`lgan kvantlar ilgari 1 mkm to`lqin uzunligiga ega bo`lgan, qaysiki nurlanish maksimumi Plank qonuni bo`yicha 3000-4000 K temperaturaga to`g`ri keluvchi nurlanishga mos kelgan.

Shunday qilib, relyativik nurlanishning mavjudligi nafaqat ilgari Koinotdagi zichlik katta bo`lganligini, bundan tashqari uning temperaturasi ham yuqori bo`lganligini (Koinotning «qaynoq» modeli) ko`rsatadi.

Koinot bundan ham zichroq va uning temperaturasi yanada yuqori bo`lganligini umuman olganda xuddi yuqoridagi nurlanishga o`xshash reliktivik neytronlar nurlanishi orqali munozara qilsa bo`ladi. Buning uchun Koinotning xiraligi  $\rho \geq 10^7 \text{ g / sm}^3$  uning zichligi bo`lgandagiga mos keladi, lekin bunday zichlik Koinot kengayishining juda boshlang`ich bosqichlarida bo`lishi mumkin. Qachonki zichlik bu qiymatdan kichiklashishi bilan neytrinolar bilan ham xuddi reliktivik nurlanish kabi hol ro`y bergen, ya`ni neytronlardan chiqqan nurlanish qolgan moddalar bilan ta'sirlashmay kengayish jarayoni ketayotgani uchun faqat kosmologik qizilga siljishni boshlaridan o`tkazganlar. Baxtga qarshi, bunday neytrinolarni yaqin orada qayd qilishning imkonи juda qiyin, chunki hozirgi vaqtda ular hammasi bo`lib elektron-voltning bir necha o`n ming ulushiga teng energiyaga ega bo`lishlari kerak.

Shunday qilib, bundan 10 milliard yil ilgari Koinot juda zich va qaynoq holatda bo`lgan. Umuman olganda, zichlik va temperaturaning o`zgarish qonunini vaqt bo`yicha orqaga davom ettirib borib shunday vaqtini ko`rsatish mumkinki, bunda kengayish qandaydir alohida o`ta zich holatdan boshlanganligini ko`rsatish mumkin va bu holatni singulyar holat deb atash qabul qilingan. Bu kengayish jarayoni boshini Katta portlash deb nomlangan. Bosim va zichlik bu vaqtda rasmiy holda cheksizlikka intiladi. Bu shu narsani bildiradiki, modda holati singulyarlikka yaqin vaqtida fizikada hali noma'lum bo`lgan qonunlar asosida bo`ladi. Zichlik  $10^{93} \text{ g / sm}^3$  qiymatidan oshganda hattoki Eynshteyning tortishish relyativistik nazariyasini ham u kvant effektlarini hisobga olmaganligi sababli qo'llab bo`lmaydi. Plank davri deb ataluvchi bu asrda gravitatsion maydonning kvantlari - gravitonlar yuzaga kelishi kerak.

Lekin taxminan kengayish boshlanganidan  $10^{-43}$  sekund keyingi holatga NUN qo`llash mumkin bo`ladi. Bizning olam evolyutsiyasining juda boshlang`ich bosqichi uchun tuzilgan kengayuvchi bir jinsli izotrop qaynoq Koinot modelidan kelib chiquvchi, lekin taxminiy va hali uncha to`liq tekshirilmagan xulosalarni ma'lum birlarini keltiramiz:

Aslida Koinotning o`ta zich holati uncha ko`p vaqt davom etmasligi kerak, lekin u keyingi evolyutsiya davomida katta ahamiyatga ega bo`lgan davr hisoblanadi. Eng ahamiyatlisi shundaki, modda temperaturasi va zichligining katta qiymatlarida zarracha va kvant nurlanishlari orasida o`zaro o`tishlarning aktiv jarayoni boshlangan. Birinchi vaqt onlarida zarrachalar va ularning antizarrachalari teng miqdorda tug`ilib turgan. Bu jarayon analogiyasi sifatida ikki kuchli gamma-kvantlarining to`qnashishi natijasida yuzaga kelgan elektron-pozitron juftligini ko`rsatish mumkin:

$$\gamma + \gamma \Leftrightarrow e^+ + e^-$$

Bu reaktsiya teskari yo`nalishda ham, ya`ni elektron va pozitron annigilyatsiya jarayoni tufayli ikkita  $\gamma^-$  kvanti hosil bo`lishi mumkinligidan strelka chapga ham ko`rsatilgan. Muvozanat sharoitlarida to`g`ri va teskari jarayonlar hamma vaqt bir xil miqdorda ro`y beradi.

Tinch holatdagi massasi m bo`lgan zarracha yuzaga kelishi uchun kvant energiyasi  $mc^2$  qiymatidan kichik bo`lmasisligi kerak, shuning uchun elektron-pozitron juftligi uchun kamida 1000 keV energiya talab qilinadi, yoki temperatura  $T > 10^{10}$  K bo`lishi kerak. Temperatura va unga mos holda kvant energiyasi qancha katta bo`lsa, o`zaro ta'sir natijasida shuncha katta massali zarracha yuzaga kelishi mumkin. Koinot evolyutsiyasining juda boshlang`ich bosqichlarida xaddan tashqari qisqa yashovchi va juda massiv gipotetik zarrachalar yuzaga kelishi mumkin bo`lgan. Zichlik va temperaturaning kamayishi bilan nisbatan kichik massali zarrachalar paydo bo`la boshlagan hamda bu vaqtida massivroq zarrachalar esa parchalanish va annigilyatsiya hisobiga qandaydir «yo`qolib» borgan.

Muhimi shundaki, zarrachalarning va ularga mos antizarrachalarning «yo`qolib» borishi aynan bir xil kechmagan, ya`ni antizarrachalarning hammasi umuman olganda yo`qolib ketgan, proton va neytronlarning (nuklonlarning) judayam kam ulushi esa qolgan. Natijada kuzatilayotgan olam antimoddadan emas, balki moddadan qurilgan, aslida umuman olganda Koinotning qaeridadur antimoddadan iborat soha bo`lishi haqiqatdan holi emas. Har ehtimolga qarshi, zarracha va antizarrachalarning asimetriya xossasi bo`lmaganida, olam umuman yolg`on moddadan iborat bo`lib qolardi.

Nuklonlarning hosil bo`lishi bilan Koinot evolyutsiyasining adronlar (adronlar bu - kuchli o`zarota`sirlashuvchi zarrachalar: protonlar, neytronlar, mezonlar va boshqalar) asri tugaydi. Adron asridan keyin leptonlar erasi boshlanadi. Bunda muhit musbat va manfiy myuonlar, neytrino va antineytrino, pozitron va elektronlardan tashkil topgan bo`ladi. Nuklonlar nisbatan kam bo`ladi. Koinotning keyingi kengayishi davomida myuonlar, shu bilan bir qatorda elektron va pozitronlarning annigilyatsiya jarayoni ro`yo bera boshlaydi. Keyinchalik modda

bilan neytrinoning o`zaro ta'sirlashuvi tugaydi va yuqorida qayd qilgan singulyarlikdan 0,2 sekund keyingi momentda neytrino «ajralishi» jarayoni ro`y beradi. Hozirgi kunga kelib bu reliktik neytrinolarning issiqlik energiyasi kamaygan va u taxminan 2K temperaturaga mos bo`lib qolgan.

Singulyarlikdan keyin taxminan 10 sekund o`tgach temperatura  $10^{10}$  K atrofidagi qiymatga erishadi va nurlanish asri boshlanadi. Bu davrda modda bilan hali kuchli o`zaro ta'sirlashuvchi fotonlar, shu bilan birga moddadan «ajralib chiqqan» neytrinolar mavjud bo`ladi. Katta portlashdan 100 sekund keyin birinchi nukleositez jarayoni boshlanadi. Eng assosiysi shundaki, protonlarning ma'lum bir qismi neytronlar bilan birlashishga ulgurib geliy yadrosini hosil qiladi. Bunga umumiyl protonlar sonining taxminan 10% ketadi. Nurlanish asri plazmaning ion holatidan neytral holatga o`tishi bilan tugallanadi. Bu esa modda xiraligi darajasining kamayishi va nurlanishning «ajralishi» bilan birga ro`y beradi. Kengayish jarayoni boshlangandan keyin million yil o`tgach moda asri boshlanadi va bunda qaynoq vodorod-geliy plazmasi va boshqa yadrolarning juda kam ulushidan bizning olamning hamma mavjud ko`p ko`rinishlari rivojlana boshlagan.

Koinot kengayishining bu bosqichlarini qarayotgan vaqtimizda quyidagi muhim savol yuzaga keladi:

Qanday qilib nobirjinslilik yuzaga kelgan, qaysiki buning natijasida Koinotning butun tashkiliy shakllari (galaktikalar, galaktikalar to`dalari va boshqalar) paydo bo`lgan?

Taxmin qilinadiki, bu nobirjinsliliklar kichgina fluktuatsiyalar ko`rinishida tug`ulib, keyinchalik esa ular Koinotdagi ionlashgan gaz neytrallasha boshlagandan, ya`ni moddadan nurlanish «ajralib» reliktik bo`lganda kuchaya borgan. Bunday kuchayish sezilarli fluktuatsiyalarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin, qaysiki buning natijasida galaktikalar shakllana boshlagan.

Koinotning ancha kattaroq tuzilmalari shakllanishida neytrinolar sezilarli rol o`ynagan bo`lishlari mumkin bo`ladi, agarda faqat haqiqatan ularning tinchlikdagi massasi nuldan farqli bo`lsa. Neytrinolarning harakat tezliklari taxminan yorug`lik tezligi teng bo`lganligi uchun ularning ixtiyoriy fluktuatsiyasi juda tez so`rilib ketgan. Ammo kengayish boshlangandan keyin bir qancha yuz yil o`tgach massaga ega bo`lgan neytrinolar tezligi yorug`lik tezligidan sezilarli kichik bo`la boshlagan bo`lishi kerak. Shuning uchun qandaydir momentdan boshlab neytrinolarning yirik quyuqlashmalari endi so`rilmasdan Koinotdagi galaktikalar to`dalari va galaktikalar o`ta to`dalari kabi katta tuzilmalari yuzaga kela boshlashiga imkon bergen. Bunda galaktikalarning o`zlari oddiy holdagi moddadan shakllanadi, agar neytrinolar sezilarli massaga ega bo`lsalar unda ular massalarning gigant quyiqlashishlari uchun tortishish markazi roli vazifasini barjara boshlab, shu tariqa galaktikalar to`dasining ko`rinmas massa manbaiga aylanadilar.

Hozirgi kunda juda katta qiyinchiliklarga qaramay kosmologiya muammolari jadal o`rganilmoqda. Albatta, hali ko`p narsalar biz uchun noma'lum, lekin umuman olganda kosmologiyada qo`lga kiritilgan yutuqlarimiz doirasida Koinot tuzilishi va evolyutsiyasining umumiyl qonuniyatları hakida ma'lum bir tessavurga egamiz.

### **Nazorat savollari:**

- 1. Koinotning rivojlanish bosqichlari**
- 2. Kosmologik prinsip va Koinot modellari**
- 3. Yopiq koinot modeli nima**
- 4. Ochiq koinot modeli nima**
- 5. Kengayuvchi koinot modeli nima**
- 6. Relyativistik astrofizika asoslari**
- 7. Koinot vujudga kelishi va evolyutsiya bosqichlari**

1.

## 2-MAVZU: Yulduzlarning tarkibi. Yulduzlarda metallarning o‘rni. Gersshprung-Rassel diagrammasi. O‘ta massiv qora o‘ralar.

**REJA:**

- 1. Yulduzlar evolyusiyasi.**
- 2. Yulduzlarning tarkibi.**
- 3. Yulduzlarda metallarning o‘rni.**
- 4. Gersshprung-Rassel diagrammasi.**

### **Yulduzlar evolyusiyasi: asosiy tushunchalar.**

Ko‘pchilik yulduzlar Quyosh singari tabiatga ega. Chunki ularning spektri Quyoshnikiga o‘xhash qora (yutilish, absorbsion) chiziqlar bilan kesilgan tutash (uzluksiz) spektridan iborat. Past dispersiyali spektrga bir qarashdan hosil bo‘lgan bu o‘xhashlik yuqori dispersiyalilarda yo‘qoladi.

Yulduzlar olami rang-barang, ular orasida aynan Quyoshga o‘xshaganlari ham bor. Biroq ko‘pchilik yulduzlar spektridaqlarini joylashishi va intensivligi bo‘yicha Quyoshdan farq qiladilar. Ularning ayrimlari spektrida yuqori ionlanish potensialiga ega bo‘lgan kimyoviy element ionlari ( $N^+$ ,  $S^{++}$ ,  $O^{++}$ ) chiziqlari ko‘rinsa, boshqalarinikida faqat vodorod atomi chiziqlari, uchinchi xillarinikida esa faqat past ionlanish potensialiga ega atomlar va molekulalar chiziqlari va tasmalari kuzatiladi<sup>1</sup>.

Yuqorida ko‘rganimizdek tutash spektr yulduz (Quyosh)ning fotosfera qatlaming pastki qismlarida chiziqlar esa uning ustiga nisbatan past temperaturaga ega qismlarida hosil bo‘lsa, yulduzlarning spektridagi rang baranglik ularning fotosferasidagi fizik sharoitni turlichaligi bilan bog‘liq degan xulosaga kelamiz. Spektri Quyoshniki singari bo‘lgan yulduzlar normal yoki stasionar yulduzlar deb ataladi. Bunday yulduzlarni yorug‘ligi deyarli (~0.1 %) o‘zgarmaydi. Demak, ularning (T) temperaturasi va radiusi (R) deyarli o‘zgarmaydi, yulduzning ichki va tashqi qatlamlari termodinamik muvozanatda.

Ayrim yulduzlar spektrida keng emission (yorug‘) chiziqlar boshqalarinikida yutilish chiziq bilan birligida, uni yonida yoki ustida shu atomga tegishli emission chiziq ham kuzatiladi. Uchinchi turdag‘i yulduzlar yorug‘ligi bilan birligida spektrini o‘zgartirib turadi. Bunday yulduzlar nostasionar yulduzlar deyiladi. Ularni o‘rganishga o‘tishdan oldin stasionar yulduzlarni fizik xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz.

Qadimdan yulduzlar juda ko‘p va bir biriga (sayyoralarga) nisbatan harakatlanuvchi mitti yorug‘ sharga o‘xshab ko‘ringan. Koinot mukammal, bir butundir hamda Biz uning markazida yoki markaz yaqinida joylashganmiz. Lekin 1609 yili dastlabki Galileyning optik teleskoplar yordamida tungi osmonni kuzatuvlaridan keyin Koinot to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz dramatik tarzda o‘zgardi. Endi biz o‘zimizni Koinot markazida deb tasavvur qila olmaymiz va u mislsiz kattadir.


Oysiz tunda ochiq osmonda biz minglab har xil yorqinlikdagi yulduzlarni, shuningdek, Somon Yo‘lining uzun yorug‘ bulutli tasmasini ham ko‘rishimiz

---

<sup>1</sup>Arnab Rai Choudhuri, Astrophysics for Physics, Cambridge University Press, 2010, 471 p.

mumkin. (1-rasm). Galiley ilk bor o‘zining teleskopida Somon yo‘lining son-sanoqsiz alohida yulduzlardan tashkil topganligini kuzatgan. Qariiyb bir yarim asr keyinroq (taxminan 1750 yillarda) Tomas Vrayt xozirda biz Galaktika<sup>2</sup> deb nomlaydigan Somon yo‘lini bir tekislikda juda katta masofalarga yoyilib ketgan yulduzlardan iborat yassi disk deb taxmin qildi.


*1-rasm. Somon yo‘li galaktikasining bir qismi. (a) rasmdagi ingichka chiziq .. qorong‘i diaganal soha yorug‘likning galaktika changlari tomonidan yutilishi hisobiga hosil bo‘lgan. (b) rasm galaktika markazi tomonidan ko‘rinishi (Arizona (AQSH) yozida tasvirga olingan).*



Bizning Galaktikamiz diametri deyarli 100 ming yoy. va disk qalinligi 2000 yoy.ga teng. U yana markaziy do‘nglik va spiral qo‘llariga ega (2-rasm). Quyoshimiz Galaktika markazidan to chekkasigacha bo‘lgan masofaning o‘rtalarida joylashgan, bu taxminan markazdan 26000 yoy ga teng. Bizning Galaktikamiz taxminan 400 milliard yuzduzlardan tashkil topgan. Quyosh Galaktika markazi atrofigda har 250 million yilda bir marta aylanib chiqadi va tezligi Galaktika markaziga nisbatan 200km/s. Jammasi odatiy materiyasining massasi esa taxminan 4.1041kg. Yana shunday qat’iy dalil ham borki, Galaktika massiv ko‘rinmas “Galo” “qorong‘i materiya” bilan o‘ralgan.

---

<sup>2</sup>Galaktika (bosh harf bilan) bu biz joylashgan galaktika, qolganlari kichik harflar bilan keltiriladi



### Quyosh

**2-rasm.** Bizning Galaktikamizning tashqi tomondan ko‘rinishi: (a) disk tekisligida "yondan ko‘rinishi"; (b) "ust ko‘rinishi". (Tashqi tomondan ko‘rinishiagar buni iloji bo‘lganida huddi shunday ko‘ringan bo‘lar edi!) (c) Somon yo‘li galaktikasi ichkari tomonidan olingan infraqizil tasvir- Galaktika diskini va markaziy do‘nglik ko‘ringan holda. Bu COBE sun’iy yo‘ldoshidan juda katta burchakda, osmonning deyarli 3600 burchakli qismidan olingan tasvir. Oq nuqtalar qo‘sni yulduzlardir.

Bundan tashqari, agar biz tungi ochiq osmonni teleskop yordamida kuzatsak, Somon Yo‘lining ichidagi va tashqarisidagi yulduzlar “nebula” (Lotin tilidan “bulut”) deb ataladigan yorug‘ bulutlarni ko‘rishimiz mumkin. Oddiy ko‘z bilan ochiq osmonni kuzatganimizda, ularning ko‘pchiligi Andromeda va Orion deb ataluvchi yulduzlar turkumiga kiruvchi tumanliklarni ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi yulduz turkumlari va guruhlari ko‘p sonli yuduzlardan iborat bulutga o‘xshab ko‘rinadi (3-rasm). Boshqalari qizigan gaz yoki chang va bularni biz asosan nebula deb ataymiz.

**3-rasm.** Herkules yulduz turkumida joylashgan sharsimon yulduz klasteri



Eng ajoyib uchinchi toifaga mansub bo‘lganlar: ular ko‘pchiligi elliptik shakiga ega. Immanuel Kant (1755 y.) ularning hira bo‘lib ko‘rinishining sababini bizning Galaktikadan juda olisda joylashganligida deb tushintirgan. Dastlab, bu ob’yektlar Galaktikamizdan tashqaridagi (ekstragalaktik) ob’yektlar ekanligi ishonarli deb tan olinmadi, lekin XX asrga kelib juda katta diametrli teleskoplar barpo etildi va ular yordamida extragalaktik ob’yektlar kuzatila boshalandi, hattoki ko‘pgina yulduzlarning boshqa, Galaktikamizdan olisdagi spiralsimon galaktikalardagi aniq joylashgan o‘rnlari va boshqa xususiyatlari aniqlandi. Yedvin Habbl (1889-1953) 1920 yillarda Los Angeles va Kaliforniya yaqinidagi Vilson tog‘ida joylashgan 2,5 m li teleskop yordamida ko‘pgina kuzatuvlar olib bordi. Habbl ushbu ob’yektlar haqiqatan ham Galaktikamizdan tashqarida joylashganini ulargacha masofaning juda kattaligidan kelib chiqqan holda isbotlab berdi. Bizga eng yaqin galaktika bo‘lgan Andromeda tumanligigacha masofa 2 million yoy.ga teng, bu esa Galaktikamiz o‘lchamidan 20 barobar katta degani. Mantiqan olib qaraganda bu tumanlik bo‘lib ko‘rinishiga qaramasdan, u ham Galaktikamizga o‘xshash galaktika bo‘lsa ajab emas. Bugungi kunga kelib, koinotning kuzatish mumkin bo‘lgan sohasida taxminan  $10^{11}$ ta galaktikalar mavjud, bu degani galaktikalar soni taxminan bitta galaktikadagi yulduzlar soniga teng (4-,5-rasmlarga qarang).



*4-rasm. Carina yulduz turkumida joylashgan gazsimon tumanlik. Bizdan taxminan 9000 yoy. uzoqlikda.*



*5-rasm. Galaktikalarning rasmlari, (a) Hidra yulduzlar turkumlaridagi spiral galaktikalar, (b) Ikkita galaktika: kattaroq va dramatikrog‘i mashxur Virlpul galaktikasi, (c) (b)dagi galaktikaning infraqizil tashviri ("yasama" ranglarda*

berilgan), bu Yerda spiral galaktikaning (b) rasmida ko‘rinmay qolgan yenglari ham ko‘rsatilgan; har hil ranglar har hil intensiveliklarga to‘g‘ri keladi. Ko‘rinuvchi nurlar galarikalararo “changlar” da infraqizil nurlarga nisbatan ko‘proq yutiladi va sochiladi, shuning uchun infraqizil nurlar aniqroq tasvir beradi.

Odatiy yulduzlardan tashqari galaktalarda, yulduz klasterlarida, galaktikalar klasterlarida va superklasterlarda ko‘plab qiziqarli ob’yektlar ham mavjud. Ular orasida qizil gigantlar, oq mittilar, neytron yulduzlar, nova va supernova deb ataluvchi yulduzlarning portlashi va hattoki yorug‘lik ham chiqib ketolmaydigan, gravitatsiyasi kuchli bo‘lgan qora o‘ralar bizga ma’lum. Bundan tashqari, Yerga elektromagnit to‘lqinlar ham yetib keladi, ammo ular nuqtaviy yorug‘lik manbalaridan chiqmaydi: ayniqsa muhim tomoni shundaki, mikroto‘lqinli nurlanish foni koinotning barcha yo‘nalishlarida bir hil.

Nihoyat, uzoq galaktikalar markazlarida o‘ta yorqin nuqtaviy yorug‘lik manbalar bo‘lgan faol galaktika yadrolari (FGYA) ham mavjud. FGYA larning eng ta’sirchan ko‘rinishi yorqinligi katta bo‘lgan qvazarlardir (“kvaziyulduz” yoki “yulduzga o‘xshash ob’yektlar”). Ularning yorug‘liklari galaktika markazlarida joylashgan gigant qora o‘ralar orqali o‘tib keladi.

**Yulduzlarning temperaturasi.** Yulduzlarni nurlanishi uning atmosfera qatlamlaridan chiqadi va uni o‘lchashga asoslanib topilgan temperatura ana shu atmosfera qatlamlarining temperaturasi bo‘ladi. Yulduzlar temperaturasini o‘lchashning bir necha usullari mavjud, ular yulduz spektrida energiyani taqsimlanishini va yulduz chiziqlar intensivligini yoki to‘la energiyani o‘lchashga asoslangan.

Qo‘llanilayotgan usulga ko‘ra hisoblab topilayotgan temperatura har xil nom bilan yuritiladi. Har xil usul bilan o‘lchanayotgan yulduz temperaturasi biroz farq qiladi. Buning sababi ular yulduz nurlanishing har xil sohalarini ifodalaydi. Shu usullarga qisqacha to‘xtalib o‘taylik<sup>3</sup>.

a) to‘la energiyani o‘lchash yo‘li bilan *T-ni hisoblash*. Bu usulni burchakiy diametri ma’lum bo‘lgan yulduzlarga qo‘llash mumkin va u yulduziy bolometrik kattalikni o‘lchashni talab qiladi. Bunday usul bilan topilgan temperatura effektiv temperatura deb ataladi va u to‘la energiyasi yulduznikidek bo‘lgan absolyut qora jismni temperurasini ko‘rsatadi  $L=4\pi r^2 \cdot Ye$ -yulduzning yorqinligi,  $Ye$ -yulduz nuri masalan, Yerda osil qilayotgan yoritilganlik,  $r$ -yulduzning Yerdan uzoqligi.  $L=4\pi R^2 \cdot \sigma T_e^4$  - radiusi ( $R$ ) yulduznikidek bo‘lgan absolyut qora jismni yorqinligi,  $T_{ye}$ -ning temperurasini. Ularni tenglashtirib temperaturani topamiz  $T_{ye}=642.3 \sqrt{\frac{E}{\sigma\theta^2}}$ ;  $\theta=206265 \frac{2R}{r}$  yulduzning burchakiy sekundlarda ifodalangan diametri. Shunday munosabatni Quyosh uchun ham yozish mumkin. Quyoshning  $T_{ye}=5700^\circ$  va  $m_b=-26^{m.85}$  ligini iisobga olsak, u iolda  $m_b$ - bolometrik yulduziy kattalikka ega yulduzning effektiv temperurasini

---

<sup>3</sup>James B. Hartle, Gravity: An Introduction to Einstein’s General Relativity, Pearson Education Ltd., 2013, 554 p.

$$\lg T_{ye} = 2.718 - 0.1m_b - 0.5 \lg \theta$$

formula yordamida xisoblanishi mumkin. Bu usulni  $\theta$  si ma'lum bo'lgan 100 ga yaqin yulduzzlarga qo'llash mumkin.

*b) spektrida energiyani taqsimlanishini o'lhash yo'li bilan T-ni aniqlash.* Bu usul ham yulduz spektrida energiyani taqsimlanishi absolyut qora jismni singari bo'la degan farazga asoslanadi. Ma'lumki absolyut qora jism spektrida energiyani taqsimlanishi Plank formulasi yordamida ifodalanishi mumkin. Bu usul bir necha usulchalarga ajraladi.

*1) Vin siljish qonuniga asosan hisoblash.* Vin siljish qonuni yoritqich spektrida energiya maksimumining to'lqin uzunligi bilan temperatura ( $T_{ye}$ ) orasidagi brjlanishni ifodalaydi va undan foydalanib  $T_p = \frac{0.29}{\lambda_{max}} K$  ni topamiz; bu yerda  $\lambda_{max}$  spektrda intensivlik  $I_\lambda(T)$  maksimumi to'g'ri keladigan to'lqin uzunlik, sm larda. Bu usulni qizil yulduzzlarga qo'llash mumkin.  $T_{ye}$ —rang temperaturasi.

*2) rang ko'rsatqichini o'lhash asosida  $T_{ye}$  hisoblash.* Agar yulduzning yorug'ligi uning spektrini ikki qismda (masalan V (vizual) va V (ko'k)) o'lchangan bo'lsa u holda temperatura

$$T_p = \frac{7920}{(B - V) + 0.72}$$

formula yordamida hisoblanishi mumkin. Bunday usul bilan o'lchangan T ham rang temperatura deyiladi.

*3) Spektral chiziqlar intensivligini o'lhash yo'li bilan T-ni aniqlash.* Birorta kimyoviy element atomlari yoki ionlarning ko'plab chiziqlari yulduz spektrida bo'lsa u holda atomlarni uyg'ongan holatlar bo'yicha taqsimlanishini topish mumkin. Bolsman yoki Saxa formulalari termodinamik muvozanatda uyg'ongan holatlar (sathlar) bo'yicha atomlarni taqsimlanishini ifodalaydi va bu taqsimlanish holatni uyg'onish potensiali ( $\chi$ ) va muhitni temperaturasiga (T) bog'liq.

$$\frac{N_n}{N_1} = \frac{g_n}{g_1} e^{-\frac{\chi_1 - \chi_n}{kT}}$$

bu yerda g-energetik satini statistik vazni,  $N_1$  va  $N_n$ —birinchi va n-nchi satilarda atomlar soni.

Chiziqlarni intensivligini o'lchab N topiladi va Bolsman formulasiga asoslanib T-xisoblanadi. Bunday usul bilan hisoblangan T-uyg'onish temperaturasi deyiladi. Agar kimyoviy elementni atomlari va ionlari chiziqlari yulduz spektrida bo'lsa u holda Bolsman va Saxa formulalari yordamida temperaturani va elektron konsentratsiyasini hisoblash mumkin. Bunday usul bilan topilgan T – ionizatsiya temperaturasi deyiladi.

Har xil usullar bilan hisoblab topilgan T lar bir biriga yaqin bu'ladi va yulduz atmosferasining temperurasini ko'rsatadi. Yulduzlarning temperaturasi 1000 dan 50 000 K gacha oraliqqa to'g'ri keladi, ya'ni yulduzlarni eng past va yuqori T-lari 50 marta farq qiladi, xolos. Bunday usullar bilan o'lchangan temperatura yulduzning atmosfera qatlamlarining temperaturasiliginini unutmaslik kerak. Temperatura yulduzning ichki qatlamlarida bundan yuqori bo'ladi.


Yorqinlik temperatura ( $T$ ) ning to‘rtinchi darajasiga bog‘liqligini xisobga olsak, yuqorida topilgan yulduzlarning yuza temperaturalar farqi ularning yorqinliklarini  $2.5 \cdot 10^5$  marta o‘zgarishini ta’minlaydi. Demak  $L$  ni o‘zgarish diapazoni ( $10^{12}$ )ni qoplash uchun  $R$  ni o‘zgarish diapazoni  $10^5$  martadan kam bo‘lmasligi zarur.

**Yulduzlar spektri. Spektral sinflashtirish.** Ko‘plab stasionar yulduzlar spektrini tahlil qilib, ulardagи chiziqlar to‘lqin uzunligi va intensivligi har xil ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Chiziqlarni intensivligiga ko‘ra yulduzlarini ma’lum ketma-ketlikda joylashtirish yoki spektral sinflarga ajratish mumkin. Bunday ish birinchi navbatda vodorod ( $N_{\alpha}, N_{\beta}, N_{\gamma}, N_{\delta}$ ) va geliy ( $\lambda\lambda 5875 \text{ \AA}, 6678 \text{ \AA}$ ) va keyin metal ionlari ( $N$  va  $K$  Sa II) atomlari ( $D_1, D_2, Na$ ), molekulalar chiziqlariga nisbatan AQSHning Garvard universitetida bajarilgan va u garvard spektral sinflashtirish deb ataladi. 1918-24 yillarda e’lon qilingan va Genri Dreper (ND) katalogi deb ataladigan 9 tomlik jadvalda 225330 yulduzni spektral sinfi belgilangan. Hozirgi kunga kelib jami 500 000 dan ortiq yulduzni spektral sinfi aniqlangan. Spektral sinflar lotin alifbosining bosh haflari bilan belgilanadi: O, B,  
 $A, F, G^c, K^s, M^c, (L^c, T)$ . Bu harflar ketma-ketligini eslab qolish uchun garvard universiteti talabalar shunday hazil o‘ylab topishgan: Oh, BeAFineGirlKissMe<sup>4</sup>.

O-sinfga mansub yulduzlar spektrida geliy ioni ( $NeII$ ) va yuqori darajada ionlangan azot ( $NIII\lambda 4514 \text{ \AA}, NIV\lambda 3479 \text{ \AA}$ ), uglerod ( $CIII\lambda 4647 \text{ \AA}$ ) kislород ( $OIII\lambda 3700 \text{ \AA}, OIV\lambda 3385 \text{ \AA}$ ) chiziqlari ko‘rinadi. V-sinfga mansub yulduzlar spektrida neytral geliy ( $NeI\lambda 5875 \text{ \AA}$ ) va past darajada ionlangan azot ( $NII\lambda 6578 \text{ \AA}, \lambda 4267 \text{ \AA}$ ), uglerod ( $SII\lambda 6578 \text{ \AA}, \lambda 4267 \text{ \AA}$ ), kislород ( $OII\lambda 4649 \text{ \AA}, \lambda 4119 \text{ \AA}$ ) va vodorod atomi chiziqlari ( $N_{\alpha}\lambda 6563 \text{ \AA}, N_{\beta}\lambda 4861 \text{ \AA}, H_{\gamma}\lambda 4340 \text{ \AA}$ ) kuzatiladi.

---

<sup>4</sup>Arnab Rai Choudhuri, Astrophysics for Physics, Cambridge University Press, 2010, 471 p.



Rasm. Xar spektral sinfga mansub yulduzlarning sinfi

A-sinf, vodorod atomi chiziqlari ( $N_{\alpha}\lambda 6563 \text{ \AA}$ ,  $N_{\beta}\lambda 4861 \text{ \AA}$ ,  $N_{\gamma}\lambda 4330 \text{ \AA}$ ) eng intensiv ko‘rinadi. Sumbulaning  $\alpha$ -si spektrida vodorod atomi chiziqlari  $N_{\alpha+}$ ,  $N_{\beta}$ ,  $N_{\gamma}$ ,  $N_{\delta}$  va hokozo eng intensiv, geliy chiziqlari yo‘qolgan. F- intensiv vodorod Sirius ( $\alpha CM$ ) chiziqlari  $N_{\alpha}$ ,  $N_{\beta}$ . bilan birgalikda metall ionlari ( $SaII\lambda\lambda 3934 \text{ \AA}$ ,  $3956 \text{ \AA}$ ) chiziqlari ko‘rinadi. Prosion ( $\alpha CMi$ ) misol bo‘la oladi. G- asosiy chiziqlar metallar (Na, Mg, Fe, Ca) niki vodorod chiziqlariham ko‘rinadi, biroq ancha xiralashgan. Quyosh G-sinfga mansub. K-kalsiyioni ( $SaII$ ) chiziqlari va metallar chiziqlari (Gasma  $\lambda=4305 \text{ \AA}$  da  $\lambda=4315 \text{ \AA}$ ) yaqqol ko‘rinadi, molekulalar ( $TiO$ ) chiziqlari va tasmalari ko‘rinaboshlaydi. Aldebaran (Savrning  $\alpha$ -si,  $\alpha$ Tau) misol bo‘laoladi. M-molekulalar ( $Ti$ ,  $O_1$ ,  $S_2$ ,  $SN$ ) tasmalar va chiziqlar orasida  $TiO$  tasmalari ajralib turadi. Betelgeuze (Orionning  $\alpha$ -si,  $\alpha$ Ori) misol bo‘laoladi.

L- sinfga mansub yulduzlar spektrida ishqor metallar (Li, Na, K, Cs) chiziqlari kuzatiladi.

T-sinfga kiradigan yulduzlar spektrida metan ( $CH_4$ ) va ishqor metallar chiziqlari ko‘rinadi. Oxirgi ikkita sinf (L, T) yaqinda (2000 y.) kashf etildi. G dan boshlangan S-sinf spektrida uglerod ( $S_2$ ,  $SN$ ) molekulalari chiziqlari ayniqsa ajralib turgani uchun bunday yulduzlar uglerodli deb ataladi. Shuningdek K-sinf yonida joylashgan S-sinf spektrida sirkoniylar, ittiriy va lantan oksidlari chiziqlari ko‘rinadi<sup>5</sup>.

Yulduzlarning fizik koersatgichlarini yana ham aniqroq belgilash maqsadida spektral sinflar ketma-ketligi keltiriladi, asosiy sinflar orasi oenta oralig sinfga

<sup>5</sup>James B. Hartle, Gravity: An Introduction to Einstein’s General Relativity, Pearson Education Ltd., 2013, 554 p.

ajratiladi: O5, O6, O7, O8, O9, V0, V1, V2, ..., V8, V9, A0, A1, ..., A8, A9, J0, va hakozo.

### b) Garvard spektral sinflashtirishning fizik asoslari.

Spektral sinflardagi chiziqlar turli tumanligi yulduzlarning kimyoviy tarkibi har xil ekan degan hulosaga olib kelmasligi kerak. Chunki chiziqni hosil bo‘lishi muhitni temperaturasiga bog‘liq. Yulduz spektrida u yoki bu atom chiziqlarini ko‘rinishini zarur sharti yulduz atmosferasida shu element atomlarini mavjudligi bo‘lsa, yetarli sharti atmosferada temperatura sharoiti atomlarni uyg‘ongan holatga o‘tkazish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Demak spektral ketma-ketlik asosida temperaturalar har xilligi yotadi. Atomlarni uyg‘ongan holatlar bo‘yicha taqsimlanishi Bolsman va Saxa formulalari bilan ifodalanadi. Har bir kimyoviy elementni ko‘pchilik atomlari ma’lum temperaturada ( $T_u$ ) uyg‘on holatlarga o‘tadi. Agar  $T > T_u$  bo‘lsa atomlar ionlanadi va bu chiziqni hosil qilishda ishtirok etayotgan atomlar sonini kamayishiga olib keladi. Yoki  $T < T_u$  bo‘lsa bu holda ham shu chiziqni hosil qilishda ishtirok etadigan atomlar soni kam bo‘ladi. Vodorodning ko‘pchilik atomlarini uyg‘ongan holatlarga ( $\chi=10$  ev) o‘tkazish uchun  $T_u=10^4$  K bo‘lishi kerak.

Bunday sharoit A sinfga mansub yulduzlarda mavjud. Agar temperatura  $T > 10^4$  (V sinf) yoki  $T < 10^4$  (F sinf) bo‘lsa vodorod chiziqlari  $N_\alpha$ ,  $N_\beta$ ,  $N_\gamma$ ,  $N_\delta$ -lar intensivligi  $T=10^4$  (A-sinf) dagi qaragandan kam bo‘ladi, bunday farq temperatura ayirmasi  $|T-T_u|$  ortgan sari kuchayib boraveradi va u ma’lum darajaga 5 000° yetgach vodorod chiziqlari umuman ko‘rinmaydi. Geliy atomlarini uygonish potensial  $\chi > 20$  ev, ya’ni vodorodnikidan ikki marta katta, demak geliy atomi chiziqlari hosil bo‘lishi uchun  $T \approx 20\ 000$  bo‘lishi kerak. Bunday sharoit V sinfga mansub yulduzlarda mavjud. A –sinf yulduzlarida temperatura geliy atomlarini uyg‘ongan holatlarga o‘tkazish uchun yetarli emas. Shuning uchun ularda geliy chiziqlari kuchsiz. K, M-sinf yulduzlarida temperatura ancha past (4500-3500 K) va molekulalar hosil bo‘lishi uchun sharoit yetarli.

Shunday qilib, har bir kimyoviy element atomlari chiziqlari ma’lum temperaturadagi (sinfdagi) yulduzlarda maksimal intensivlikka ega bo‘ladi. Bu sinfdan chap yoki o‘ng tomonda joylashgan sinflarda intensivlik kamaya boradi. Spektral sinflar chiziqlarni intensivligi bo‘yicha belgilanadi. Temperaturani aniqlash uchun oraliq sinflar kiritilgan. A bilan V orasi o‘nta oraliq sinfga bo‘lingan.

Agar yulduzni spektri olingan bo‘lsa, uni spektral sinfini va temperaturasi ( $T$ ) ni aniqlash mumkin. Bunday yo‘l bilan aniqlangan  $T$  tutash spektrda energiyani taqsimlanishi yoki rang ko‘rsatqichi (V-V) bo‘yicha aniqlangan temperaturaga mos kelishi isbotlangan. Shuning uchun spektral sinflar o‘rnida  $T_e$  yoki V-V qo‘llaniladi. Jadval 1 da bosh ketma-ketlik spektral sinf,  $T_e$  va V-V keltirilgan.

**1-jadval**

|    | O<br>5     | V<br>0     | A<br>0   | G<br>'0  | G<br>0   | K<br>0   | M<br>0   | I<br>-         |
|----|------------|------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------------|
| e  | 4<br>0 000 | 2<br>8 000 | 9<br>900 | 7<br>400 | 6<br>030 | 4<br>900 | 3<br>480 | 1<br>700       |
| -U | -<br>0.33  | -<br>0.31  | 0<br>.00 | 0<br>.27 | 0<br>.57 | 0<br>.89 | 1<br>.45 | 0<br>(3)<br>5) |


### v) Gersshprung-Rassel diagrammasi

XX-asr boshlarigacha bir necha yuz yulduzni uzoqligi (yillikparallaksi) o‘lchanadi va absolyut kattaligi ( $M$ ) hisoblab topiladi. Shu paytga kelib ularning spectral sinflari ham aniqlanadi. 1905 – 1913 yillarda daniyalik E. Gersshprung (1873-1967) va amerikalik G.N. Rassel (1877-1957) bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda yulduzlar diagrammasini tuzadilar. Ular ordinate o‘qi bo‘ylab yulduzlarni absolyut kattaliklari abscissa o‘qi bo‘ylab esa spectral sinflarini qo‘yadilar. Bunday diagrammada har bir yulduz bitta nuqtasifatida o‘ringallaydi. “Gersshprung-Rassel diagramma” si nomi bilan fanga kirgan, bu diagramma rasmida tasvirlangan<sup>6</sup>.

Diagrammada yulduzlar ma’lum tartibda joylashadilar. Ko‘pchilik (90 %) yulduzlar diagrammani yuqori chap tomonidan boshlanib o‘ng past tomoniga cho‘zilgan ingichka sohada joylashadilar. Bu yulduzlarni bosh ketma-ketligi deyiladi. Diagrammani o‘rtasidan biroz chaproq va yuqoriroqda bir to‘da yulduzlar o‘rin egallaydilar. Ular gigant yulduzlar deb ataladi, chunki ular bosh ketma-ketlikdagi shunday spektral sinfdagi karlik (xira) yulduzlardan yuzlab marta yorqindirlar va bu ularning radiusi o‘nlab martta kattaligi bilan bog‘liq. Diagrammani yuqori qismidan yana ham katta ( $10^4$  marta) yorqinlikka ega yulduzlar o‘rin oladilar. Bunday yulduzlar o‘ta gigant deb ataladi va ular kamchilikni tashkil etadi.

---

<sup>6</sup>Arnab Rai Choudhuri, Astrophysics for Physics, Cambridge University Press, 2010, 471 p.



*2-rasm-7. Gershprung-Rassel diagrammasi va ayrim yulduzlar guruuhlarining fazoviy xarakat tezliklari*

Diagrammani pastki chap yarim qismida qaynoq biroq shunday temperturadagi bosh ketma-ketlik yulduzlaridan yuzlab minglab marta kam yorqinlikka ega yulduzlar joylashadilar. Bu yulduzlar bosh ketma-ketlik yulduzlaridan o'nlab marta kichik bo'lganliklari uchun oq mittilar deb atalaganlar.

Karlik yulduzlar spektral sinfi oldiga kichik d (dwarf), subkarliklar- sd, gigantlar-g, o'ta gigantlar-sg yoki xarf qo'yib belgilanganlar. Masalan, sA yoki sgA-A sinfga mansub o'tagigant, gG-G sinfga kiruvchi gigant, sdM-M sinfga kiruvchi sub karlik, dG-G sinfga kiruvchi bosh ketma-ketlik yulduzi va wA-A sinfga kiruvchi oq mittilar. Bunday ajratishda spektral chiziqlarni kengligi va intensivligi asos qilib olingan. Bu belgilar oldin chiqqan jadvallar va kitoblarda uchraydi. Xozirgi zamonda ular qo'llanilmaydi. Ular o'rniда rim raqamlari I, II, III, IV, V, VI, VII bilan ifodalanadigan yorqinlik sinflari qo'llaniladi.

**Yulduzlarni aylanishi va magnit maydoni.** Quyosh o'z o'qi atrofida aylanadi va uning aylanish tezligi ekvatorida 2 km/s. Quyoshning umumiy magnit maydoni kuchlanganligi 0.5 gs ga teng va u o'zgaruvchan (22 yillik sikl)dir. Yulduzlar ham o'z atrofida aylanishini va uning tezligiga mos ravishda kuchlanganlikka ega o'zgaruvchan magnit maydon hosil qilib turishi kerak. Agar yulduz o'z atrofida aylanayotgan bo'lsa uning bir cheti bizga tomon harakat qilsa qarama-qarishi bizdan uzoqlashadigan harakat qiladi. Demak yulduzning butun gardishi bo'yicha yig'indi nurlanish spektrida chiziqlar doppler effekti tufayli

kengaygan bo‘ladi. Shuning uchun bir xil sinfga mansub ikkita yulduz chiziqlari farqi ularni o‘q atrofida aylanishi va magnit maydoni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Haqiqatdan chiziqlar profilini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, O5-G‘0 sinfga mansub bosh ketma-ketlik yulduzlari o‘q atrofida aylanishi ekvatorida 300-400 km/s ga yetishi mumkin. G‘5-M sinfga mansub yulduzlarniki 10 km/s dan oshmaydi. o‘tagigant va gigant O-F yulduzlar bosh ketma-ketlik yulduzlariga nisbatan sekin aylansalar, G-M yulduzlar tez (100 km/s gacha) aylanadilar<sup>7</sup>.

Hozirgi zamon usullari yulduzlar magnit maydoni kuchlanganligi  $N > 200$  gs bo‘lsa o‘lchay oladilar. Yuzdan yulduz magnit maydonga ega ekanligi aniqlagan.

### **Gravitasion kollaps**

Qisqa vaqt (1-2 kun) ichida yorug‘ligini minglab yoki millionlab marta oshirib yuboradigan, ungacha hech qanday ko‘rsatgichi bilan ko‘zga tashlanmagan, chaqnash paytida esa atrofidagi yulduzlar orasida yaqqol ko‘rinadigan yulduz yangi yoki o‘tayangi yulduz deb ataladi. Ma’lum vaqt davomida (o‘nlab yillar) yangi oldingi holatiga qaytadi, o‘tayangi o‘rnida esa neytron yulduz hosil bo‘ladi. Yangi va o‘tayangi hodisasi nafaqat yorug‘likni o‘zgarishi bilangina farq qilmay balki, ular yulduz faoliyatida butunlay boshqa-boshqa jarayonlardirlar. Yulduz bir necha marta yangi sifatida chaqnashi mumkin, biroq bir marta o‘tayangi sifatida chaqnaydi. Yangi yulduzlar qatori chaqnovchi mitti yulduzlarga ulanib ketadi. Biroq ularni hosil qiladigan yulduzlar zich qo‘shaloq bo‘lishi ta’kidlanmoqda.

a) **yangi yulduzlar.** O va V sinfga mansub havo rang karlik chaqnash sifatida ko‘rinadigan bunday yulduzlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga juda tez va tez yangilar kiradi, ularning so‘nish fazasida yorug‘ligini o‘zgarish egrisi nisbatan tekis bo‘lib ( $3$ -rasm) maksimumida absolyut vizual kattaligi  $M_V=-8\div-14^m$  oraliqda bo‘ladi. Yorug‘ligini o‘zgarish amplitudagi  $A=11.9^m$  gacha yetadi. Ikkinci guruhga past darajada tez va juda sekin yangilar kiradi. Ularning yorug‘lik egrisi silliq bo‘lmay ichki tuzilishga ega va har xil yangilarniki bir-biriga o‘xshamaydi. Bunday yangilarning absolyut vizual kattaligi  $M_V=-6\div-7^m$  oraliqda, yorug‘ligini o‘zgarish amplitudasi  $A=9.2^m$ . Yangilar boshqa galaktikalarda ham kuzatiladi<sup>8</sup>. Masalan, Andromeda tumanlisi ( $M 31$ )da 300 yaqin yangi qayd qilingan. Andromeda tumanligida va bizning Galaktikada ( $\sim 200$  ta) yangilar yulduz tizimning asosiy tekisligi yaqinida, tizim markazi tomon zichlashib boradigan holda kuzatiladilar. Yangining maksimumida absolyut vizual kattaligi ( $M_{V,\max}$ ) bilan uni uch birlikka kamayishi uchun ketgan vaqt ( $t_3$ ) orasida quyidagi statistik bog‘lanish topilgan:

$$M_{V,\max} = -11.75^m + 2.5 \lg t_3$$

1975 y. Oqqushda kuzatilgan yangi uchun  $t_3=4.1^d$  va  $M_{V,\max}=-10.2^m$ . Ko‘pchilik observatoriylar ishtirokida o‘tkaziladigan maxsus kuzatishlarda Andromeda tumanligida bir yilda 26 ta yangi qayd qilindi.


Yangilarni infraqizil (IQ) nurlarda kuzatishga ko‘ra ayrim yangilarning IQ yorug‘ optik maksimumdan keyin kamayish o‘rniga ortish ko‘rsatadi. Misol uchun

<sup>7</sup> Бочкарев Н.Г.б Магнитные поля в космосе, М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2011. – 216 с.

<sup>8</sup> Max Camenzind, Compact Objects in Astrophysics, Springer, 2007, 682 p.

1976 y.da chaqnagan NQVal yangining IQ ( $\lambda=3.2$  mkm) yorug‘ligi 80 kun ichida 3<sup>m</sup> birlikka ortdi. Bu yangi atrofida hosil bo‘lgan ( $T=1000^\circ$ ) ulkan chang qobug‘ bilan bog‘liq.

Chaqnash paytida maksimumgacha yangining spektri o‘tagigantga xos xususiyatlari kuchaya boradigan normal yulduz spektridan iborat. Bu xususiyatlar spektral chiziqlarni juda ingichkalashib va keskinlasha borib namoyon bo‘ladi. Bu yutilish chiziqlari spektrni binafsha qismi tomon siljigan va bu siljish kuzatuvchi tomon yo‘nalgan birnecha yuz km/s tezlikdagi harakatga mos keladi.



*8-rasm. Yangi yulduz yorug‘ligini o‘zgarish chizig‘i shakli.*

Maksimumdan keyin spektrda keskin o‘zgarishlar ro‘y beradi: qisqa to‘lqinli tomoniga absorbsion (yutilish) chiziqlar yopishib turgan ko‘plab emission polosa (tasma)lar paydo bo‘ladi. Absorbsion chiziqlarga endi 1000 km/s dan ortiq harakat mos keladi. Maksimumdan keyin, yangi yorug‘ligi 5-6<sup>m</sup> birlikkacha kamaygach tutash spektr juda xira, yulduzning spektri qaynoq gaz spektriga o‘xshash emission chiziqlardan iborat. Bu paytda yangi spektri Wolf-Rayе yulduzlarinikiga o‘xshaydi; chaqnashning oxirgi brsqichida emission chiziqlar yo‘qoladi va yangi yorug‘ligini pasayishiga mos keladigan tutash spektriga ega bo‘lib qoladi.


Maksimumdan keyin yangi spektrini Wolf-Rayе yulduzlar spektriga o‘xshashligi ularga qobug‘i tez (1500 km/s gacha) kengayayotgan yuduz statusini berishga imkon beradi. Maksimumdan keyin yangi spektrida N, SaII, Ni, FeII, TiII, OI va Ci absorbsion chiziqlari kuzatiladi. Bu yangining bosh yutilish spektridir. Bulardan tashqari spektrda ta’qiqlangan chiziqlar [OI]  $\lambda\lambda 5577, 6300, 6363$ , [NII]  $\lambda 5755$  shuningdek kuchaygan HeI $\lambda 5876$  chiziq kurinadi. Bosh spektr-diffuz-chaqmoq spektrga aylanadi (chiziqlar keng, yoyiq  $v_N > 1500$  km/s). Yagini yorug‘ligi 3.5<sup>m</sup> birlikka pasaygach yangini yuitilish spektri V sinfga mansub yulduzlarinikiga o‘xshaydi. Bundan keyin yulduz o‘tish fazasiga tushadi: bunda yoki yulduz yorug‘ligi kichik tebranishlar ko‘rsata boshlaydi yoki 5<sup>m</sup> birlikka keskin pasayib ketadi.

Yangi yorug‘ligi va spektrini o‘zgarishini “yulduz shishadi va yoriladi” deb tushuntirish mumkin. Haqiqatdan chaqnash boshlanishida uning yorug‘ligini ortishi va spektrini dyarli o‘zgarmasligini uning radiusini kattalashishi yoki yulduzni yetarli darajada qalin ( $r \gg 1$ ) qobug‘ qatlamini kengayishi bilan tushuntirish mumkin. Yulduz diametri Quyoshnikidan bir necha yuz marta kattalashgach, qobug‘ yupqalashadi va bir necha bulutsimon bo‘laklarga bo‘linib ketadi. Bu bo‘laklar

yulduzdan barcha tomonga o‘zoqlasha boshlaydilar. Yulduzdan ketma-ket bir necha qobug‘ qatlamlar uzilib chiqadi va kenyadi. Yulduz atrofida tumanlik hosil bo‘ladi. Chaqnash natijasida yangi yulduzning  $10^{-4}$ – $10^{-5} m_{\odot}$  massasi fazoga uloqtirib yuboriladi, yoki uning atrofida gaz tumanlik hosil bo‘ladi.

Ayrim yangilar zich qo‘shaloq ekanligi aniqlangan. Misol uchun Gerkules yulduz turkumida 1934 y. da chaqnagan yangi NHer 1934 to‘silma qo‘shaloq bo‘lib yorug‘ligini o‘zgarish amplitudasi  $2^m$  birlik davri  $4^h$   $39^m$ –qisqa. Shunday ko‘rsatshichga ega yangilar T-Aur ( $B=4^h 54^m$ ), V603 Agl ( $3^h 20^m$ ). Bu yangilarni massasi kam degan xulosaga olib keladi:  $m=(0.87\pm 0.33)m_{\odot}$

**b) O‘ta yangi (SN) yulduzlar.** o‘tayangi (SN) chaqnashi natijasida ajralib chiqadigan energiya butun bir galaktika sochayotgan energiyaga yaqin bo‘ladi. 1885 yilda Andromeda tumanligida kuzatilgan N5  $6^m$  yulduziy kattalikka ega bo‘lgan. Solishtirish uchun Andromeda tumanligi yig‘ma yorug‘ligi  $4.4^m$ . Masimumda SN larni absolyut kattaligi o‘rtacha  $M_V=-15^m$ , ya’ni yangilarnikidan  $7^m$  birlikka yuqori. Ayrim o‘tayangilar maksimumda  $M_V=-20^m$ ga yetadi bu Quyoshnikidan 10 mlrd. marta ortiq demakdir. Bizning Galaktikada oxiri 1000 yil ichida uch marta (1054 y. da Savrda, 1572 y. da Kassiopeyada, 1604 y. da Iloneltuvchida) SN chaqnagan. 1670 yilda Kasseopeyada chaqnagan o‘tayangi tasodifan qayd qilinmagan. Hozir bu yulduz atrofida gaz tumanlik kuzatiladi va kuchli radionurlanish (CasA) sochiladi<sup>9</sup>.



9-rasm. SNI(a) va SNII(b) turdag'i o‘ta yangilarni yorug‘ligini o‘zgarish chizig‘i.

Boshqa galaktikalarda ko‘plab SN kuzatilgan. o‘rtacha har bir galaktikada 200 yilda bitta SN chaqnaydi. 1957-61 yillarda o‘tkazilgan maxsus xalqaro patrul natijasida 42 o‘tayangi kashf etildi. Hozirgacha o‘tayangilar soni 500 dan oshdi.


<sup>9</sup>T. Padmanabhan, Theoretical Astrophysics, Volume II, Cambridge University Press, 2010.

Yorug‘ligini o‘zgarish egrisiga ko‘ra SN larni ikki turga bo‘lish mumkin: SNI va SNII.SNI-maksimumi tez (bir havta) o‘tadi va undan keyingi 25 kun ichida yorug‘ligi kuniga  $0.1^m$  dan kamaya boradi. Shundan keyin yorug‘ligini pasayishi sekinlashadi (4 rasm) va shu tarzda to yulduz qayd qilib bo‘lmaydigan darajagacha xiralashguncha bir xil surat kuniga ( $0.014^m$  dan) bilan so‘nadi. SN ni yorug‘ligi eksponensial tarzda 55 kunda ikki marta kamaya boradi. Savr yulduz turkumida 1054 yilda chaqnagan yulduz maksimumida  $m_V=-5^m$  kattalikka yetgan va bir oy davomida kunduzi ko‘ringan, u kechasi 2 yil davomida teleskopsiz oddiy ko‘zga ko‘rinib turgan. SNI maksimumda  $M_{Pg}=-19^m$ , yorug‘ligini o‘zgarish amplitudasi  $A=-20^m$ .

SNII-ning yorqinligi pastroq: maksimumda  $M_{Pg}=-17^m$ , (A-noma’lum) va shu darajada bir necha vaqt (20 kun) turadi. Undan 100 kun keyin har 20 kunda  $1^m$  birlikka kamaya boradi (4 rasmda b). SN lar galaktika tekisligi chegaralari yaqinida kuzatiladi. SNI-ixtiyoriy shakldagi galaktikalarda, SNII-faqat spiral galaktikalarda kuzatiladi.

SNI spektri yangilarnikidan butunlay farq qiladi. Spektridagi keng emission tasmalar hech bir element atomi chiziqlarga mos kelmagandan bu tasmalar chiziq emas balki tutash spektr sohalaridir. Ularni ajratib turuvchi qora sohalar kengaygan va siljigan yutilish chiziqlari degan xulosaga kelindi (E.R. Mustel, Yu.P. Pskovskiy, Rossiya). Bu qora tasmalarni tekshirish natijasida SNI paytida yulduzdan massasi  $0.3 m_\odot$  bo‘lgan qobug‘ ajraladi va 15 000 km/s tezlik bilan kengaya boshlaydi. Tezliklar keng oraliqni egallaydi. Qobug‘ bo‘laklarga ajralib ketgan. SNII-spektri oddiy yangi yulduzlar spektriga o‘xshash: qisqa to‘lqinli tomoniga yutilish chizig‘i yopishib turgan keng emission tasmalardan iborat. Vodorod chiziqlari intensiv. SNI-vodorodi yonib tugagan yulduzlardir.SNII-esa yosh yulduzlardir<sup>10</sup>.

SN chaqnashi natijasida chaqnagan yulduz atrofida gaz tumanlik hosil bo‘ladi.SN 1054 -o‘rnida Qisqichbaqasimon tumanlik sifatida ko‘rinadi.SN 1054 va SN 1572 (Kassiopeya) o‘rnida hozirgi kunda kuchli radionurlanish manbalari (TauA va CasA) joylashgan.



<sup>10</sup>Arnab Rai Choudhuri, Astrophysics for Physics, Cambridge University Press, 2010, 471 p.

*10-rasm. Qisqichbaqasimon tumanlik va uning ichida kuzatiladigan pulsarning intensivligini o‘zgarish chizig‘i.*

Qisqichbaqasimon tumanlik  $16^m$  kattalikdagi ichida qo‘shaloq yulduz joylashgan. Yulduzlarni bari quyி spektral sinfga mansub ikkinchisi esa juda qaynoq, kuchli ultrabinafsha rang ortiqlikka ega yulduz. Bu yulduz radio va rentgen diapozonlarda impulslar tariqasida nurlanish sochadi. Impulslar oralig‘i –davri 0.033 sek. Bu neytron yulduz bo‘lib o‘q atrofida tez aylanishi (sekundiga 33 marta) natijasida pulsar sifatida ko‘rinadi. NP 0532 raqam bilan ro‘yxatga olingan bu pulsarni davri sistematik ravishda ortib bormoqda (aylanish tezligi kamaymoqda): 2500 yilda 2.7 marta. Bunday sekinlashuv energiyani  $10^{38}$  erg/s ga kamayishini ko‘rsatadi. (Rasm-5).

### **Yulduzlarning tarkibi**

Yulduzlarning fizik xarakteristikalarini, ichki tuzilishini va kimyoviytarkibini vaqt bo‘yicha o‘zgarishi yulduzni evolyusiyasi yoki rivojlanish jarayonida o‘zgarishi deb ataladi. Stasionarholatdagiyulduzbugidrostatik (gravitasion kuch ichki bosim kuchiga teng) va energetik (atrofga sochilayotgan nuriy energiya yulduz o‘zagida ajralayotgan energiyaga teng) muvozanatdagi gaz (plazma) shar. Yulduzni «tug‘ilishi» bu atrof fazoga sochilayotgan energiyasini o‘zining ichki energiya manbahi isobiga to‘ldirib turuvchi gidrostatik muvozanatdagi ob‘yektning hosil bo‘lishidir. Yulduzni «o‘lishi» bu tiklanmaydigan muvozanatni buzilishi yoki uni halokatli holatda siqilishidir<sup>11</sup>.

Yulduz sirtidan energiya sochilishi uning ichki qatlamlarini sovishi, uni siqilishi natijasida ajralib chiqayotgan gravitasion potensial energiya yoki yadro reaksiyalar hisobiga ro‘y berishi mumkin. Sovish va gravitasion siqilish, masalan, Quyoshni 10 million yil hozirgi kundagidek nurlanish sochib turishi uchun yetadi. Holbuki, Quyosh bilan birga hosil bo‘lgan Yerning yoshi 4.5 milliard yilga teng, demak uninge nergiyasi siqilish energiyasi emas.

Yulduzning evolyusiyasi boshidan oxirigacha kuzatib bo‘lmaydigan juda uzoq dovom etadigan jarayon. Shuning uchun, yulduz evolyusiyasini tekshirishda har xil massaga ega yulduzlarning ichki tuzilishi va kimyoviy tarkibini vaqt bo‘yicha o‘zgarishini namoyish etuvchie volyusion modellarni tuzish usuli qo‘llaniladi. Bu evolyusion modellar kuzatish natijalari, masalan, harxil evolyusiya bosqichidagi ko‘plab yulduzlarning yorqinligi bilan temperaturasini bog‘lovchi Gershprung-Rassel diagrammasi bilan solishtiriladi va bu yulduzni evolyusion ketma-ketlikda o‘rnini aniqlashga yordam beradi. Bu usul yulduz to‘dalari (tarqoq va sharsimon) uchun qo‘llanilganda ayniqsa yaxshi natija beradi. Chunki to‘da a’zolari bir vaqtدا bir xil kimyoviy tarkibdagi tumanlikdan hosil bo‘lganlar.

Yulduzlarni evolyusion ketma-ketliklari ularning ichida massani, zichlikni, temperaturani va yorqinlikni ifodalovchi differentsial tenglamalarni gazlarning holat tenglamasi, energiya ajralish qonunlari, ichki qatlamlarni notiniqligini hisoblash

---

<sup>11</sup>Arnab Rai Choudhuri, Astrophysics for Physics, Cambridge University Press, 2010, 471 p.

formulalari va bu qatlamlarning kimyoviy tarkibini vaqt bo'yicha o'zgarish tenglamalari bilan birgalikda yechiladi.

### **Yulduzlarni hosil bo'lishida gravitasion siqilish bosqichi.**

Eng keng tarqalgan qarashga ko'ra yulduzlar yulduzlararo muhitdagi muddani kondensatsiyalanishi natijasida hosil bo'ladilar. Buning uchun yulduzlararo muhit ikki bosqichni o'tishi zarur: zikh sovuq bulut va yuqoriroq temperpturadagi siyraklashgan muhit. Birinchi bosqich yulduzlararo muhitdagi magnit maydonda Reley-Taylor noturg'unligi tufayli ro'y bersa ikkinchisiga zikh bulut muddasini kosmik va rentgen nurlar tomonidan ionlantirish natijasida ro'y bergan issiqlik noturg'unligi sabab bo'ladi.  $\text{M} = (10^5 - 10^6) \text{ M}_\odot$  ( $\text{M}_\odot$ - Quyosh massasi) teng, o'lchamlar  $10 - 100$  parsek, zarra konsentratsiyasi  $n = 10^8 \text{ m}^{-3}$  bo'lgan chang+gaz komplekslar kuzatiladi. Bunday komplekslar siqilishi uchun ularda zarralarning gravitasion bog'lanish energiyasi zarralarning issiqlik harakati, bulutning yaxlit holda aylanish energiyalar yig'indisidan kata bo'lishi kerak (Jins kriteriyasi). Agar faqat issiqlik energiyasi hisobga olinsa Jins kriteriyasiga ko'ra hosil bo'lgan bulutning massasi

$$\text{M} > \text{M}_j \approx 150 \text{ T}^{2/3} \text{n}^{-1/2} \text{M}_\odot,$$

bo'lishi kerak. Bu yerda  $T$  - kelvinlarda hisoblangan temperptura,  $n$  – bir  $\text{sm}^{-3}$  da zarra konsentratsiyasi. Gaz+chang bulutlar uchun hozirgi zamonda aniqlangan  $T$  va  $n$  larda ularning massasi  $\text{M} > 10^3 \text{M}_\odot$  bo'lishi kerak<sup>12</sup>.

Jins kriteriyasiga ko'ra massasi hozir ma'lum bo'lgan oraliqdagi ( $0.01 - 100 \text{ M}_\odot$ ) yulduz hosil bo'lishi uchun siqilayotgan bulutda  $n = 10^3 - 10^6 \text{ sm}^{-3}$  bo'lishi kerak. Bu gaz+chang bulutlarda kuzatilayotgandan  $10 - 100$  - marta ko'p demakdir. Biroq bunday zarralar konsentratsiya bulut o'zagida bo'lishi mumkin. Demak massiv bulutda ketma-ket ro'y beradigan bo'laklarga ajralish natijasida yulduz hosil bo'lishi mumkin. Bu yulduzlar to'da holda paydo bo'ladi, degan xulosa qilishga imkon beradi.

Keyinchalik kollaps natijasida yulduzga aylanadigan ob'yekt (bulut bo'lagi) protoyulduz deb ataladi. Bunda magnit maydonsiz va aylanmaydigan sferik simmetrik protoyulduz birnecha bosqichlarni bosib o'tadi. Dastavval birjinsli va izotermik bulut o'zining issiqlik nurlanishi uchun tiniq va kollaps energiya yo'qotish natijasida boshlanadi. Chang gaz zarralarini kinetik energiyasi hisobiga issiyboshlaydi va unda energiya issiqlik uzatuvchanlik natijasida tarqalaboshlaydi va protoyulduzni tashqi chegarasidan issiqlik nurlanishi sifatida fazoga sochiladi (energiya yo'qotish). Birjinsli bulutda bosim gradiyenti yo'q va siqilish erkin tushish sifatida boshlanadi. Siqilish boshlangandanoq bulutda tovush tezligida uning markazga tomon tarqaladigan siyraklashish to'lqini hosil bo'ladi. Chunki kollaps zikhlik yuqori joyda tez, natijada protoyulduz kuyuq o'zakka va keng siyrak qobuqqa ajraladi. o'zakda zarra konsentratsiyasi  $10^{11} \text{ sm}^{-3}$  ga yetgach u o'zining infraqizil nurlanishi uchun notiniqlashadi. o'zakda ajralayotgan energiya uning sirtiga nuriy yo'l bilan chiqaboshlaydi. Temperatura adiabatik ko'tarila boshlaydi va

---

<sup>12</sup>Max Camenzind, Compact Objects in Astrophysics, Springer, 2007, 682 p.

bu bosimni ko‘tarilishiga olib keladi va o‘zak gidrostatik muvozanatga o‘tadi. Qobuq moddasi o‘zakka tushishini dovom etadi va o‘zak chetida zarb to‘lqini hosil bo‘ladi. Bu paytda o‘zak parametrleri protoyulduz massasiga kam bog‘liq va uning massasi, radiusi, zichligi, va temperaturasi quyidagicha

$$\mathfrak{M}_o = 5 \cdot 10^{-3} \mathfrak{M}_\odot, r_o = 100 R_\odot, \rho = 2 \cdot 10^{-10} \text{ g/sm}^3, T = 200 \text{ K.}$$

Qobug‘dan o‘zakka modda tushishi (akkresiya) natijasida uning temperaturasi 2000 K ga yetguncha adiabatik ko‘tariladi. Temperatura 2000 K ga yetgach vodorod molekulalari parchalanaboshlaydi va adiabata ko‘satqichi  $4/3$  dan kamayadi. Bu holatda bosimning o‘zgarishi gravitatsiya kuchlarini yengishga yetmaydi. o‘zak yana siqiladi (kollaps) va uning parametrleri endi quyidagicha

$$\mathfrak{M}_o = 5 \cdot 10^{-3} \mathfrak{M}_\odot, r_o = 1 R_\odot, \rho = 2 \cdot 10^{-2} \text{ g/sm}^3, T = 2 \cdot 10^4 \text{ K.}$$

Qobug‘dan o‘zakka modda akkreksiyasi davom etadi, temperaturani ko‘tarilishi davom etadi. Endi o‘zakda vodorodni ionlanishi boshlanadi va yuqoridagi o‘zakni qayta tuzilishi ro‘y beradi.

O‘zakniqobug‘ hisobiga kattalashuvi qobug‘da modda tugaguncha dovom etadi. Qobug‘ moddasining bir qismi yulduzning nuriy bosimi ta’sirida fazoga tarqalib ketadi, o‘zak va qobug‘dan iborat yulduzlar IQ nur manbai sifatida kuzatiladi. Qobug‘ optik yupqa bo‘lgach protoyulduz yulduz maqomiga ega ob‘yekt sifatida kuzatiladi. Ayrim massiv yulduzlarda qobug‘ o‘zakda yadro reaksiyalari boshlanguncha qoladi. Protyulduz kollapsi  $10^5 - 10^6$  yil dovom etadi. o‘zak tomonidan yoritilayotgan qobug‘ qoldiqlari yulduz shamoli tasirida tezlatiladi. Bunday ob‘yektlar Xerbig - Aro obektlari deb ataladi. Kam massadagi yulduzlar ko‘rinaboshlaganda ular Savrning T – si singari xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Gidrostatik muvozanatdagi kam massaga ega yulduzlar o‘zagida energiya konveksiya yo‘li bilan chiqadi. Massasi Quyoshnikining uchdan biridan ko‘p yulduzlar o‘zagida nuriy muvozanat qaror topadi. Massasi uch Quyosh massasidan ko‘p yulduzlar o‘zagida nuriy muvozanat tezda shakillanadi.

### b) yadro reaksiyalari asosida yulduz evolyusiyasi.

Dastlabki yadro reaksiyalar taxminan million K temperaturada deyteriy, litiy va bor ishi bilan boshlanadi. Bu elementlarni dastlabki miqdori shu darajada kam ularning yonishi amalda protoyulduz siqilishini to‘xtataolmaydi. Yulduz markazida temperatura  $\approx 10^7$  K ga yetganda va vodorodni yonishi boshlanganda uni gravitasion siqilishi to‘xtaydi. Chunki faqat vodorodni yonish energiyasi yulduz fozoga sochayotgan energiyani to‘ldirib turish uchun yetarli. o‘zagida vodorodni yonishi boshlangan birjinsli yulduzlar G-D da dastlabki bosh ketma-ketlikni (BKK) tashkil qiladi. Massiv yulduzlar BKK ga kam massalilarga qaraganda tezroq tushadilar. BKK ga tushgandan boshlab yulduz evolyusiyasi yadrolarni yonishi asosida (yadroviy bosqichlar jadvalda keltirilgan) boradi.

2-jadval. Yadroviy yulduz evolyusiyasining asosiy bosqichlar

| Yadroviy yoqilg‘i | Yoni sh mahsuloti | Yonish temperaturasi, K | Energiya chiqarish, erg/g | Energiyani olib ketuvchi zarra | Dovomi yligi, yulduz yoshi foizlarida |
|-------------------|-------------------|-------------------------|---------------------------|--------------------------------|---------------------------------------|
|                   |                   |                         |                           |                                |                                       |

|                          |                         |                               |                                     |   |  |
|--------------------------|-------------------------|-------------------------------|-------------------------------------|---|--|
| H                        | He                      | (1-)                          | $7 \times 10^{18}$                  | foto  | $\geq 90\%$                                    |
| He                       | C, O                    | $)^* 10^7$                    | $7 \times 10^{18}$                  | nlar  | $\leq 10$                                      |
| C                        | Ne,                     | $2^*$                         | $7 \times 10^{17}$                  | fotonlar                                    | < 1  |
| Ne                       | Na, Mg                  | $10^8$                        | $5 \times 10^{17}$                  | neyt  | < 1  |
| O                        | O,                      |                               | $1 \times 10^{17}$                  | rino  | < 1  |
| Si                       | Mg                      | $1.3 \times 10^9$             | $5 \times 10^{17}$                  | neyt  | < 1  |
|                          | Si ÷                    | $1.8 \times 10^9$             | $1 \times 10^{17}$                  | rino  |  |
|                          | Ca                      | $3.4 \times 10^9$             | $5 \times 10^{17}$                  | neyt  |  |
|                          | Sc ÷                    |                               | $3.4 \times 10^{17}$                | rino  |  |
|                          | Ni                      |                               |                                     | neyt  |  |
|                          |                         |                               |                                     | rino  |  |
| Ya<br>droviy<br>yoqilg'i | Yoni<br>sh<br>mahsuloti | Yonish<br>temperaturasi,<br>K | Ene<br>rgiya<br>chiqarish,<br>erg/g | Ener<br>giyani<br>olib<br>ketuvchi<br>zarra | Dovomi<br>yligi, yulduz<br>yoshi<br>foizlarida |

Temperatura  $\leq 18 \times 10^6$  bo'lganda proton-proton sikli, undan yuqori bo'lganda uglerod-azot sikli (CNO) asosiy energiya manbai bo'ladi. Eng massiv yulduzlarda massaning 50% konveksiyalanadi. Vodorodni to'la yonish vaqtiga massasi  $\mathfrak{M} \approx 1 \mathfrak{M}_\odot$  bir quyosh mssasiga teng yulduzlarda  $10^{10}$  yil,  $\mathfrak{M} \approx 50 \mathfrak{M}_\odot$  - yulduzlarda  $3 \times 10^6$  yil. Jadvaldan ko'rinish turipti, boshqa reaksiyalar hisobiga yulduzni yashash vaqtiga umumiy yashash vaqtini 10% dan oshmaydi. Shuning uchun G-D diagrammada ko'pchilik yulduzlar o'rni bosh ketma-ketlikdir (BKK). Vodorodni yonishi o'zak moddasini o'rtacha molekulyar massasi oshiradi, gidrostatik muvozanat uchun markazda bosim va temperatura ko'tariladi, yorqinlik oshadi, qobug' tiniqlashadi. Katta miqdordagi energiya yo'qotishni taminlash uchun o'zak siqilaboshlaydi, qabug' esa kengayaboshlaydi. G-D diagrammada yulduz BKK dan o'nga siljiydi. Massasi katta yulduzlar BKK ni birinchilar qatori tark etadi.  $\mathfrak{M} \approx 15 \mathfrak{M}_\odot$  yulduzlarni BKK da bo'lish vaqtiga 10 mln yil,  $\mathfrak{M} \approx 5 \mathfrak{M}_\odot$  larniki - 70 mln yil va  $\mathfrak{M} \approx 1 \mathfrak{M}_\odot$  larniki 10 miliard yil.

v) **yulduz evolyusiyasining oxirgi bosqichi.** Massasi  $\mathfrak{M} > 5 \mathfrak{M}_\odot$  bo'lgan yulduzlarning markaziy qisimlarida jadvalda ko'rsatilgan barcha reaksiyalar ro'y berishi mumkin. Temir o'zakni hosil bo'lishi ayrim hollarda undan ham oldin gidrostatik muvozanat yo'qotilishi mumkin va gravitasion kollaps ro'y beradi. Kollaps natijasida zinchlik  $10^{12} \text{ g/sm}^3$  ga yetadi va modda neytrallashadi<sup>13</sup>. Agar  $\mathfrak{M} < 2 \mathfrak{M}_\odot$  bo'lsa aynigan gaz va  $\gamma = 5/3$  da bosim va tortishish tenglashadi. Aks holda kollaps cheksiz va yulduz qora o'raga aylanadi. Kollaps to'xtatilganda neytron yulduz sirtida zarb to'lqin ro'y beradi va u tashqi tomon tarqaladi va qobuqni uloqtirib yuboradi (o'tayangi yulduz).

### Yulduzlarda metallarning o'rni

<sup>13</sup>T. Padmanabhan, Theoretical Astrophysics, Volume II, Cambridge University Press, 2010.

Qora tuynuklar – bu fazo-vaqtning shunday soxasiki, kuchli gravitasion maydon hisobiga u yerni xatto yorug‘lik tezligida xarakatlanuvchi zarralar, shuningdek yorug‘lik kvantlari ham tark eta olmaydilar. Ushbu sohaning chegarasi xodisalar gorizonti deb ataladi, uning o‘lchami esa gravitasion radius deyiladi. Eng sodda holda – sferik-simmetrik qora tuynuklar uchun ushbu o‘lcham Shvarsshild radiusiga teng. Nazariy jixatdan bunday ob’yektlarning mavjudligi Eynshteyn tenglamalarining ba’zi aniq yechimlari tomonidan kelib chiqadi. Bunday yechimlarning birinchisi Karl Shvarsshild tomonidan 1915 yili topilgan<sup>14</sup>.

